

SH.SH. SHOYUSUPOVA

BOSHLANG'ICH SINF  
O'QUVCHILARINING KREATIV  
QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA  
TA'LIMIY O'YINLARDAN  
FOYDALANISH TEKNOLOGIYASI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

**SHOYUSUPOVA SHAXZODA SHOXRUX QIZI**

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING  
KREATIV QOBILIYATLARINI  
RIVOJLANTIRISHDA TA'LIMIY O'YINLARDAN  
FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI**

**MONOGRAFIYA**

«SARBON LLS»  
TOSHKENT – 2024

**UO'K:**

**KBK:**

**Shoyusupova Shaxzoda Shoxrux qizi / Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda ta’limiy o‘yinlardan foydalanish texnologiyasi** / Monograiya. – T.: «SARBON LLS» nashriyoti, 2024. – 120 b.

Ushbu monografiya boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda ta’limiy o‘yinlardan foydalanish texnologiyasini takomillashtirishga bag‘ishlangan.

Mazkur ishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativlikni rivojlantirish tuzilmasi motivatsion-qadriyatga yo‘naltirilgan, ijodiy komponentlarini kognitiv va affektiv o‘ziga xosliklarini tavsiflash asosida aniqlash-tirilgan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativlikni rivojlantirish modeli tizimli, shaxsga yo‘naltirilgan va madaniy-insonparvarlik yondashuvlarini ta’lim-tarbiya jarayonining yaxlitligi, ijodiy topshiriqlar orqali o‘zlash-tirish, hamkorlik, badiiy madaniyatga qiziqtirish, madaniyat va uyg‘unlik tamoyillari bilan maqbulligini ta’minalash asosida takomillashtirilgan.

Ushbu ishda taqdim etilgan natijalardan oliy ta’lim muassasasining boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida tahsil oluvchi talabalar, makktablarda faoliyat olib borayotgan o‘quvchilar foydalanishlari mumkin.

**Taqrizchilar:**

**Sh.Q.Mardonov** - Pedagogika fanlari doktori, professor

**F.I.Ochilobov** – Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

ISBN

## MUNDARIJA

KIRISH.....	5
<b>I BOB. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....</b>	<b>9</b>
1.1. Kreativlik va va kreativ qobiliyat tushunchalarining umumiy mohiyati.....	9
1.2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kreativ qobiliyatlarini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	16
1.3. O‘quvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘qituvchi omili .....	26
<b>II BOB. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA TA’LIMIY O‘YINLARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI .....</b>	<b>44</b>
2.1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ qobiliyatni rivojlanterishning metod, vosita va shakllari.....	44
2.2.Ta’limiy o‘yin faoliyati – kreativ qobiliyatni rivojlanterishning o‘ziga xos vositasi sifatida .....	51
2.3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kreativ qobiliyatlarini rivojlanterishda ta’limiy o‘yinlardan foydalanan metodikasi .....	69
<b>III BOB. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA TA’LIMIY O‘YINLARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASINING SAMARADORLIGI.....</b>	<b>84</b>

3.1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda ta’limiy o‘yinlardan foydalanish texnologiyasini takomillashtirishga yo‘naltirilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi .....	84
3.2.Tajriba-sinov ishlarining statistik tahlili .....	100
XULOSA VA TAVSIYA .....	108
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .....	110

## KIRISH

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni talabalarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, talabalar foliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma hamda malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda bu borada katta tajriba to‘plangan bo‘lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar - interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol metodlar asosida dars mashg‘ulotlarini tashkil qilish an’anaviy darslarga nisbatan samaradorlikka ega hisoblanadi. Shu sababli ham umumta’lim maktablarda ham interfaol metodlar asosida ta’limiy o‘yin faoliyatini loyihalashtirish mexanizmini ishlab chiqish monografiyaning dolzarbligini belgilaydi.

O‘quvchining qiziquvchanligi ta’lim jarayonida qo‘l keladi, ijodiy fikrlash shu tariqa o‘zaro kelishuvchanlik vositasiga aylanadi, hattoki avvaldan belgilangan ta’lim maqsadlari kontekstida ham bu samara beradi. Maktabda o‘quvchining motivatsiyasi va qiziqishini oshirish uchun, barcha o‘quvchilarning ijodiy salohiyati va shijoatini hisobga oluvchi ta’limning yangi shakllari yo‘lga qo‘yilishi zarur. Bu, ayniqsa, ta’lim jarayoniga unchalik qiziqish bildirmayotgan o‘quvchilarga yordam berishi mumkin va ular o‘z fikrini ayta olishiga, salohiyatini ochishiga xizmat qiladi. Boshqa ko‘nikmalar kabi, kreativ fikrlash ham amaliy va yo‘naltirilgan yondashuv

orqali rivojlantirilishi mumkin. Ba’zi o‘qituvchilarga o‘quvchining kreativ fikrlashini rivojlantirish o‘quv dasturidagi boshqa fanlar evaziga bo‘layotgandek ko‘rinadi. Aslida, o‘quvchilar barcha fanlarda kreativ fikrlashi mumkin. Kreativ fikrlash bilim berishga qaratilgan dars mobaynida ko‘r-ko‘rona yodlash o‘rniga tadqiqot va ixtironi qo‘llab-quvvatlaydigan yondashuvlar orqali rivojlantirilishi bilan alohida ahamiyatga ega. O‘qituvchilar kreativ fikrlashni ajrata olishlari, bunday fikrlashga mos shart-sharoitlarni bilishlari va o‘zлari ham o‘quvchilarga fikrlashda ko‘proq ijodiy yondashishga yordam bera olishni bilishlari kerak. Kreativ fikrlash qay tariqa vujudga kelishi borasidagi puxtarot tasavvur, o‘z navbatida, o‘qituvchilarga ta’lim jarayonida o‘quvchilarda ijodiy g‘oyalar bo‘lishi uchun muayyan vaqt talab etiladi. Kreativ fikrlash ko‘nikmalarini baholash isbotga tayangan dalillar asosida shakllantirilib, o‘quvchilar kompyuter platformasida qilayotgan, o‘qiyotgan va yaratayotgan narsalarni ko‘p jihatli malakalar bilan bog‘laydi.

Ijodiy sermahsullik bazaviy resurs yoxud sohaga bog‘liq qobiliyatlar, jumladan, bilim va texnik ko‘nikmalar bo‘lib, ularni yangicha usulda birlashtirish uchun kerak bo‘ladigan qobiliyatlar tayyor qo‘llanmalardan voz kecha olish kabi zarur motivatsiyani taqozo etadi. Bu to‘rt komponent ham turg‘un, ham takomillashtirish va muhitga moyil bo‘lgan komponentlardan iborat. O‘quvchilarning kreativ fikrlash ko‘rsatkichlari ularning tadqiqotchilik qobiliyatlariga qanday bog‘liq ekanligini tahlil etish ham o‘rinlidir. Xuddi o‘quvchi ishtiyoqini o‘lchaydigan uslub kabi, uning tadqiqotchilik qobiliyatini ham kompyuterlashgan testdag‘i xattiharakatini kuzatishdan olingan (telemetriya) ma’lumotlar asosida tahlil qilish mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda ta’limiy o‘yinlardan foydalanish texnologiyalari ishlab chiqilganligiga qaramasdan sinflarda ishlash uchun guruhanishi lozim.

Kreativlik so‘zini ilk bor 1922 yilda AQSh olimi D. Simpson tomonidan qo‘llanilgan. Ushbu atama orqali shaxs qolipdagi, stereotip, odatiy tafakkurdan voz kechish qobiliyatini ta’riflagan.

K. Rodjers (1944) kreativlik deb muammolarni yangi yechimi va biror narsa, voqeа, holatni ifoda etishning yangi usullarini aniqlashni tushunadi. Kreativlik bilan shaxs va intellektual xossalalar taqqoslangan tadqiqotlar katta ahamiyatga egadir. Intellektual xossalalar bilan taqqoslash bo‘yicha tadqiqotlar Dj. Gilford tomonidan amalga oshirilgan.

O‘quvchi o‘qitish va tarbiyalash jarayonining o‘zidayoq bilim va tarbiya oluvchi shaxsga aylanadi. Sh.A.Amonashvili ta’lim jarayonida o‘quvchi bilan hamkorlik munosabatini o‘rnatish lozimligini ta’kidlab, shunday deydi: “O‘quvchining o‘quv-biluv faoliyati nafaqat qiziqarli o‘quv materiali va uni tushuntirishning turli metodlari vositasida, balki pedagogning ta’lim jarayonidagi muomala xarakteriga ko‘ra tartibga solinadi. Mehr, ishonch, hamkorlik, hurmat mavjud bo‘lgan muhitda o‘quvchi o‘quv topshiriqlarini oson o‘zlashtiradi. Yutuqlari, mustaqil fikri, ijodiy izlanishlari yuqori baholanayotganini ko‘rgan o‘quvchi yanada murakkab bo‘lgan o‘quv topshiriqlarini bajarishga intila boshlaydi”.

Ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlantirishning ko‘plab vositalari mavjud, ammo bizning ilmiy qiziqishimiz interfaol ta’limga qaratilgan. Hozirgi vaqtida asosiy uslubiy yangiliklar interfaol o‘qitish usullaridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lib, ularning mohiyati biror narsa (masalan, kompyuter) yoki kimdir (shaxs) bilan o‘zaro ta’sir qilish yoki

dialog rejimida bo‘lish qobiliyatidir. Mahalliy psixologlar va o‘qituvchilar (L.I.Aidarova, L.S.Vygotskiy, L.V.Zankov, V.V.Davydov, Z.I.Kalmykova, V.A.Krutetskiy, D.B.Elkonin va boshqalar) ijodiy fikrlashni, kognitiv faoliyatni subyektiv tajribani shakllantirish uchun ta’lim faoliyatining muhimligini ta’kidlaydilar.

Tadqiqotchilar V.V.Davydov, L.V. Zankova, V.V. Kraevskiy, I.Y.Lerner, M.N. Skatkina, D.B. Elkonin ta’lim mazmunining mustaqil tarkibiy elementidir deb fikr bildiradilar. Ta’lim mazmunining tarkibiy elementi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ilgari olingan bilimlarni yangi vaziyatga o‘tkazish;
- muammoga mustaqil qarash, muqobil yechimlar;
- ilgari o‘rganilgan usullarni yangi usullarga birlashtirish va boshqalar.

# **I BOB. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**

## **1.1. Kreativlik va kreativ qobiliyat tushunchalarining umumiy mohiyati**

Kreativlik (lot., ing. “create ” – yaratish, “creative ” yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma’nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi.

P.Torrensning fikricha, **kreativlik**:

- muammoga yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- farazni tekshirish va o‘zgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;
- muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlikni ifodalaydi.

Odatda kreativlik bolalarning faoliyatida tez-tez ko‘zga tashlansa-da, biroq, bu holat bolalarning kelgusida ijodiy yutuqlarni qo‘lga kiritishlarini kafolatlamaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi.

Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagi shartlarga e'tibor qaratish zarur:

- ular tomonidan ko‘p savollar berilishini rag‘batlantirish va bu odatni qo‘llab-quvvatlash;
- bolalarning mustaqilligini rag‘batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;
- bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;
- bolalarning qiziqishlariga e’tibor qaratish.

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi:

1. O‘zini tavakkaldan olib qochish;
2. Fikrlash va xatti-harakatlarda qo‘pollikka yo‘l qo‘yish;
3. Shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
4. Boshqalarga tobe bo‘lish;
5. Har qanday holatda ham faqat yutuqni o‘ylash.

Psixologiyada P.Torrens tomonidan shaxs kreativligini aniqlovchi test ishlab chiqilgan. P.Torrensning fikricha, shaxs kreativligi o‘zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi:

1. Savollar, kamchiliklarga yoki bir-biriga zid ma’lumotlarga e’tiborsiz bo‘lmaslik;
2. Muammolarni aniqlash uchun harakat qilish, ilgari surilgan taxminlar asosida ularning yechimini topishga intilish.

Bugungi kunda psixologiyada shaxs kreativligi uning faoliyatiga xos ikki jihatga ko‘ra aniqlanmoqda. Bunda faoliyatning ikki jihatimi yorituvchi testlardan foydalaniladi. Farqli ravishda ta’lim va tarbiya

jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyatni.

Pedagogning kreativlik potensiali uning umumiyligi xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'zini-o'zi namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potensial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlarini tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi.

Kreativ potensial bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligida, yangi g'oyalarni yaratish, qobiliyati, shuningdek, shaxs xarakteriga xos jihatlar – bir qolipda fikrlamaslikda, o'ziga xoslikda, tashabbuskorlikda, noaniqlikka toqat qilishda, zakovatli bo'lishda aks etadi.

Pedagog kreativlik potensialiga ega bo'lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e'tiborini qaratishi zarur:

1. Kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish;
2. Yangi-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish;
3. Hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish – ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish.

Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rghanish, o'z ustida ishslash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va

kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o‘zini o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e’tibor qaratishi zarur.

Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o‘z oldiga muammoli masalalarni qo‘yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo‘lgan dalillar bilan to‘qnash keladi. Buning natijasida o‘z ustida ishlash, mustaqil o‘qib o‘rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi.

Kreativlik potensialiga ega pedagog o‘zida quyidagi malakalarni namoyon eta oladi:

- bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish;
- masalaning qo‘yilishini tahlil qila olish;
- masalani hal qilish rejasini tuzish;
- masalani hal qilishda samarali metodlar (analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va b.)larni qo‘llash;
- masalani hal qilish usullarini tanlay olish;
- qabul qilingan qarorning to‘g‘riligini asoslash va qayta tekshirish;
- masalani hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish;
- masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala yechimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish

Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potensialini yanada rivojlantiradi. Natijada pedagog:

- ijodiy fikrlashga odatlanadi;
- ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish ko‘nikmalarini puxta o‘zlashtiradi;
- pedagogika yoki mutaxassislik fani yutuqlari hamda ilg‘or tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini mustaqil tahlil qiladi;
- pedagogik jamoa tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot va ijodiy loyihalarni bajarishda faol ishtirot etadi

Pedagogning kreativ potensiali quyidagi tarkibiy asoslarni o‘z ichiga oladi:

1. Tarkibiy asoslar

2. Maqsadli - motivli yondashuv (ijodiy faoliyat qadriyat sanaladi va u pedagogning qiziqishlari, motivlari, faoliyatni tashkil etishga intilishida ko‘zga tashlanadi) (o‘zida ma’lum fikriy tezkor-faoliyatli yondashuv-mantiqiy fikrlashga doir harakatlar, shuningdek, amaliy (maxsus, texnik, texnologik) faoliyat usullari.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativlik yo‘naltirilganligini quyidagi pedagogik shart-sharoitlar asosida shakllantirish mumkin, agarda:

- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tug‘ma istedodi gavdalansa;
- dunyoda va yurtimizda ro‘y berayotgan yangiliklardan boxabar bo‘lib borsa va ularni kundalik hayoti faoliyatida qo‘llab borsa;
- mavjud psixologik to‘sqliarni yengib o‘ta olsa;
- o‘quvchilarining kreativ salohiyati o‘qituvchilar tomonidan e’tiborga olinsa va qo‘llab-quvvatlansa.

Kreativlik – bu shaxsning individual xususiyati bo‘lib, madaniy vositalarni shaxsiy tushunchalaridan kelib chiqqan holda qo‘llashi va rivojlantirishidir.

Kreativlik psixologik nuqtai nazaridan tahlil etilgan va bugungi kunda pedagogik nuqtai nazaridan tadqiq etishni talab etayotgan muhim pedagogik muammodir. Kreativlik - bu o‘quvchilarни innovatorlikka undovchi pedagogik kategoriya hisoblanadi. Kreativlik o‘quvchilarning shaxsiy sifatlarining integratsiyasidir. Chunki o‘quvchi tabiatan qiziquvchan, intiluvchan bo‘lmas ekan, bunday o‘quvchi hech qachon ijodkorlikni namoyon eta olmaydi. Turli xil muammoni o‘quvchining o‘zi mustaqil holatda bajarish jarayonida uchragan muammolarni yengishda o‘quvchining kreativlik salohiyati shakllanadi, ijodiy qobiliyatları rivojlanadi.

Kreativ salohiyat tushunchasi murakkab va serqirradir.

Kreativlik - o‘quvchilarda o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan sifat emas, u o‘quvchining yangiliklarga intilishi, yangiliklarni o‘zlashtirishi va o‘zining kundalik faoliyatida qo‘llay olish jarayonlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yenga olishi, innovatsion yangiliklarni o‘z faoliyatida faol, ijodkorona foydalana olishi bilan bog‘liqdir. O‘quvchining kreativligining shakllanishi «ehtiyojlar, yo‘nalishlar va «Men» konsepsiya»laridan kelib chiqadi.

Ta’lim olish kengligida kreativlikni rivojlantirishning asosiy pragmatik tavsifi sifatida dialog xizmat qiladi. Shaxsning kreativligini psixolog olimlar o‘quvchilarning insho yozishlari jarayonida tahlil etishga harakat qilishgan. Hamda quyidagi ishlar amalga oshirilgan. Yosh avlodni bilimli, har tomonlama rivojlangan, komil shaxs sifatida shakllantirishda o‘qituvchilarning ijodkorligi, o‘z sohasi bo‘yicha bilimlarini doimo oshirib

borishi, so'nggi yangiliklarni o'zining pedagogik faoliyatida qo'llay olishlari, bir so'z bilan aytganda ularning kreativlik faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday kreativlik ayniqsa O'zbekiston Respublikasining ta'lif sohasidagi strategik yo'lida juda ham muhimdir. Kreativ salohiyat ijod bilan bog'liq holda o'rganiladi va tushuniladi. Ijodkorlikning psixologik jihatlari haqida fikrlar bildirilib, bilim asosan fikr yuritish va tasavvur qilish bilan bog'liq holda tahlil etiladi. Ijodning psixologik asoslari sifatida quyidagi elementlar qabul qilingan.

Bular:

1. Qabul qilish.
2. Xohish va istak.
3. Tasavvur qilish.
4. O'z-o'zini kuzatish.

Shu bilan bir qatorda bilimning asosini tashkil qilishda asosiy o'rinni egallaydigan fikr yuritish bilan tasavvur qilish quyidagi elementlar belgilanishi e'tirof etgan.

Bular:

- 1) aqliy mehnat;
- 2) intuitsiya;
- 3) dunyoqarash

Buyuk olim V.A.Slastyonin ijodkorlikning asosiy hislatlarini quyidagicha belgilangan:

- shaxsning ijodiy motivatsiyani qo'llaganligi;
- qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish, ijodiy yutuqlar, peshqadamlikka va o'z kamolotiga intilish;
- kreativlik, bu – xayoliy qarash;

- baho bera olish qobiliyati va o‘z kamolotiga intilish;
- ijodiy faoliyatiga hamkorlik va o‘zaro yordam berish qobiliyati;

Kreativ salohiyatga ega o‘quvchilar boshqalarga taqlid qilmasdan, o‘zlari tanlagan faoliyatlarining barcha bosqichlariga kreativ va mustaqil yondashadilar. Shu kreativ salohiyat jamiyat a’zolari bilan muomalada bo‘lishi, munosabat o‘rnatishi natijasida shakllanib boradigan sifatlardan biridir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kreativ salohiyatini takomillashtirishda uning psixologik holati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, insonning ruhiy xususiyatlarining rivojlanishi (aql, iroda, diqqat, harakat va h.k.), hayotda o‘z o‘rnini topa olishi, uning vatan, xalqning ravnaqi yo‘lida og‘ishmay, e’tiqod bilan xizmat qilishi, iymonli bo‘lishi insonni shaxs darajasiga ko‘taradi. Bunday sifatlarning ro‘yobga chiqishi tarbiyaga bog‘liq bo‘ladi.

## **1.2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kreativ qobiliyatlarini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari**

O‘zbekiston taraqqiyotining ma’naviy-axloqiy va kasbiy asoslari to‘g‘risida fikr yuritib, istiqlol sharoitida o‘quvchilarining bilim asoslarini puxta egallashlari bilan birga mustaqil va kreativ fikrga ega bo‘lgan, g‘oyaviy, mafkuraviy jihatdan chiniqqan, kasbiy mahoratini mustaqil vatanimizning ravnaqi yo‘lida fidokorona safarbar eta oladigan ruhda tarbiyalash lozimligini dolzarb vazifa qilib qo‘yilgan.

Har qanday jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy barqarorligi o‘sha jamiyat fuqarolarining ma’naviy-axloqiy, intellektual va

kasbiy salohiyati darajasiga bog‘liq. Shunday ekan, ma’naviy-axloqiy va kasbiy jihatdan to‘laqonli shakllanmagan shaxsda o‘z vatani, millati, egallagan kasb-kori bilan faxrlanish tuyg‘usi sayoz bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini vatanparvarlik, mehnatsevarlik, rostgo‘ylik, xalqsevarlikka o‘rgatish lozimdir. Aslini olganda, axloq ma’naviyatning o‘zagi hisoblanadi. Inson axloqi shunchaki salom-alik, xushmuomalardangina iborat emas.

Axloq boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yurish-turishida, o‘zini tutishida, insonlar bilan muomala madaniyatida namoyon bo‘ladi. Axloq - bu avvalo insof vaadolat tuyg‘usi, iyomon, halollik, mehr-oqibat, bag‘ri-kenglik, mehnatsevarlik, rahmdillik, samimiylilik, sahiylik, shirinso‘zlik ekanligini alohida uqtirib o‘tish lozimdir. Agar boshlang‘ich sinf o‘quvchisi o‘quv-biluv va tarbiyaviy faoliyatning maqsadini bilmasa, o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan vazifalarni tushunmaydi hamda qabul qilolmaydi. O‘quvchining majburiyati qiziqish asosida bo‘lmay, balki majburiy, sun’iy va lozim bo‘lsa tazyiq ostida sodir bo‘ladi.

O‘quvchi darslik mazmunidagi mavzularni shunchaki ko‘r-ko‘rona “o‘rganish”ga yoki ayrim munosabatlarni quruq yodlab olishga majbur bo‘ladi. “O‘qituvchi-o‘quvchi” va “Tarbiyachi-tarbiyalanuvchi” munosabati “subyekt-subyekt” munosabatlar darajasiga ko‘tarilmas ekan, o‘quvchida tarbiya jarayoniga va bilim, ko‘nikma, malakalarini egallahsga nisbatan befarqlik vujudga keladi. Barchamizga ayon bo‘lishi kerakki, qayerdaki beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o‘zbo‘larchilikka tashlab qo‘yilsa, o‘sha yerda ma’naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha, qayerda xushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo‘lsa, o‘sha yerda ma’naviyat qudratli

kuchga aylanadi. O'sib va rivojlanib boruvchi inson ta'lim va tarbiya obyekti hisoblanadi. Butun hayoti davomida insonning rivojlanish jarayoni davom etaveradi. Bu jarayonda u turli o'zgarishlarni, jismoniy, ruhiy, miqdor va sifat o'zgarishlarni o'z boshidan kechirib boradi.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasini isloh qilishdagi sa'yи harakatlarining biri – bu o'quvchilarning zamon talablariga hamnafas tarzda ta'lim olishlari, har tomonlama rivojlangan komil shaxs bo'lib yetishishida chuqur bilim egallashlarini talab etmoqda. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning kreativlik salohiyatini shakllanishiga turtki bo'ladi. Bugungi kunda dunyo miqyosida to'rtinchchi sanoat tamaddunining dvigateli-harakatga keltiruvchi kuchi kreativlikdir. Atrofga nazar tashlasak har tomonda inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalariga duch kelish mumkin: virtual reallik, to'rburchak tarvuzlar, elektron xizmatlar, tuproqsiz hosil olish, bularning barchasi inson tasavvuri, tafakkuri mahsulidir. Odatiy bo'lib tuyulgan kitob, musiqa, samolyot va hattoki lampalar ham qachonlardir orzu va tasavvurda bo'lgan, keyinchalik aql-idrok samarasi natijasida qaratilgan. Bu esa o'z-o'zidan ta'lim va tarbiya ishlarining qonuniyatlarini o'rganuvchi pedagogika faniga "kreativlik" degan tushunchani olib kirdi. Ayniqsa ilmiy bilimning bugungi kundagi rivojlanishi, kreativlikning shaxsni, jamiyatni va davlatni rivojlantirishga ta'siri ushbu masalasini ilmiy pedagogik nuqtai nazardan chuqur o'rganishni talab etmoqda. Ayniqsa, umumta'lim maktablarida o'quvchilarning kreativligini rivojlantirishga bo'lgan ijtimoiy buyurtma vujudga kelmoqdaki, bu borada ilmiy pedagogik izlanishlar olib borish talab etiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining kreativ salohiyatini takomillashtirish mobaynida uning o‘sishi, qandaydir yangi xotiraning mahsuldorligini oshirish uchun ta’lim jarayonida o‘zini-o‘zi nazorat qilish, materialni takrorlashda tekshirish, esga tushirish, mashq qilishdan unumli foydalanish zarur. Agar boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga eslab qolish va eslash usullari o‘rgatilmasa, ular materialni bevosita takrorlashda, uzoq vaqt to‘xtalib qoladilar. Shuning uchun ham eslash qiyin mehnat hisoblanadi. Lekin o‘quvchilar materialni eslashni xush ko‘rmaydilar va uni osongina tiklash yo‘lini tushunmaydilar. Materialni eslab qolish,esda saqlash, esga tushirish va eslash usullarini o‘rgatish mantiqiy xotira o‘sishining garovidir. O‘quvchilar xotirasiga tayanib ko‘p narsani eslab qolsa, undagi bilishga bo‘lgan qiziqishi yanada kuchayadi. Dars jarayonida mavzuni yaxshi tushunish uchun ma’suliyat bilan yondashadi. Fanga bo‘lgan qiziqishi ortadi. Qolaversa, ma’suliyat sari harakat qiladi. Yana ham ko‘p narsalarni bilishga intiladi. Shu bilan birgalikda, biror ma’lumotni eslab qolishda hayol surish orqali amalga oshirish ham maqsadga muvofiqdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining hayoli o‘z o‘quv faoliyatining ta’siri, talabi, imkoniyat va shart-sharoitlari orqali tarkib topadi. O‘quvchining xayoli tevarak-atrof taassurotlari, dunyo ajoyibotlari, ko‘rsatmalilik, tasviriy san’at asarlarini yetarli darajada aks ettirish bilan vujudga keladi. Ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yorqin, aniq, tiniq, yaqqol tasavvur obrazlari xayol yordamida muayyan voqealikka aylanadi. O‘rganilayotgan fan materiallari eshitilgan va o‘qilgan badiiy asarlardagi obrazlar tartibga solinadi, yaxlit bir butunlikdan iborat umumlashgan obrazlar tizimi yaratiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari xayolning xususiyatlaridan yana bir hayotiy vogelik bilan fantaziyaning o‘zaro

aralashib ketishidir. O'quvchilar xayolparastlikka, fantaziyaga berilishining oldini olishga pedagoglar, umuman kattalar doimo ahamiyat berishlari kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim jarayonida anchagina ilmiy tushunchalarni o'zlashtirsalarda, oldingi darslarda o'zlash-tirilgan turli alomatlar, belgilar, xususiyatlarni qorishtirib, chalkashtirib ham yuboradilar. Chunki ularda tushunchalar tarkibiga kiradigan narsa va hodisalar bilan ularning belgilari o'rtasida uzviy bog'lanish tarkib topmagan bo'ladi. 1-4-sinf o'quvchilari, ya'ni boshlang'ich ta'lim davri kiradi. Bu davrda bolalarda:

- boshlang'ich sinf davrdagi bola o'quvchi maqomi darajasiga yetadi;
- barcha tana a'zolari rivojlanish bosqichida bo'lib, lekin suyaklari hali to'liq qotib ulgurmagan bo'ladi;
- psixologik qo'zg'alish va tormozlanishi tez o'zgaruvchan bo'ladi;
- o'yin faoliyatidan ko'proq o'qish faoliyatiga o'tishi talab etiladi;
- mактабга borishga doir psixologik yo'nalish olish ishlari amalga oshiriladi;

Shuningdek, endigina maktabga qadam qo'ygan bola quyidagi turlardagi qiyinchiliklarga duch keladi:

- maktabga borishi bilan bolaning shuningdek, endigina maktabga qadam qo'ygan bola quyidagi turlardagi qiyinchiliklarga duch keladi;
- maktabga borishi bilan bolaning kun tartibida o'zgarishlar bo'ladi;
- o'qituvchilar bilan tengdoshlari (sinfdoshlari) bilan muloqotda bo'lishi;
- egallagan bilimlarini amalda qo'llashi va h.k.

Boshlang'ich sinfda o'qiyotgan bola uchun shaxsiy yutuqlari – o'qishda, sportda bolalar orasidagi nufuzi va obro'si katta ahamiyat kasb

etadi. Eng muhimi, aynan bu davrda o‘quvchiga e’tiborli bo‘lish, oltin so‘zlar (barakalla, ota-onanga rahmat, tashakkur, senga ishonaman....) bilan rag‘batlantirish, jamoa orasida ijobiy baholash, kayfiyatini ko‘tarish orqali o‘quvchilarni ijodiy salohiyatini yuksaltirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, kreativ salohiyat deganda o‘quvchilar boshqalarga taqlid qilmasdan, o‘zлari tanlagan faoliyatlarining barcha bosqichlariga ijodiy yondashadilar degan fikr yetakchilik qiladi. Kreativlik xususida gap borar ekan, shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, xatti-harakatida muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorlikning muhim omili sifatida ham aks etadi. Chunki har bir inson ham o‘z dunyoqarashi va bilimiga asoslangan holatda faol bo‘lishga intiladi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi, o‘quvchilarning diqqat-e’tiborini ta’lim jarayoniga faol jalg etishni ta’minlaydi. Shundan kelib chiqib zamonaviy ta’lim sifatini oshirish, ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini samarali tashkil etish muammosi, zamonaviy o‘qitish usullaridan keng foydalangan holda o‘quvchilarda kreativ salohiyatni rivojlantirish davr talabidir.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi, “o‘quvchilar e’tiborini ta’lim jarayoniga faol jalg etishni ta’minlaydi”.

Shu bilan bir qatorda kreativlik masalasini ilmiy tushunishda turli fikrlarning mavjudligi, yaxlit xulosaga kelinmaganligi tadqiqot mavzusi dolzarbligining yana bir ko‘rinishi hisoblanadi. Vaholanki, bu muammo bugungi kunga qadar ko‘plab G‘arb mamlakatlarida turlicha tahlil etilgan va o‘rganilgan. Masalan, N.N.Nechayev, Y.A.Ponomarev, D.V.Ushakov singari olimlar kreativlik masalasini umumiy tarzda shaxsning individual psixologik xususiyati sifatida o‘rgangan bo‘lsalar, Agababyan A.R., Arutyunyan N.D., Aleynikov A.G., Andreyev V.I., Vishnyakova, N.F., Drapeau Pattilar kreativlikning ma’naviy, psixologik jihatlarini tahlil etgan.

XXI asrga kelib O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasida ham ushbu termin ishlatila boshladi. Ayniqsa, pedagogika fanining alohida va yosh tarmog‘i sifatida shakllanib boshlagan “Innovatsion pedagogika”da ushbu terminga bot-bot duch kelmoqdamiz. R.A.Mavlonova o‘zining “Boshlang‘ich ta’limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya” nomli o‘quv qo‘llanmasida kreativlikning o‘zi nima, uning shakllanishi masalalariga alohida to‘xtalib o‘tgan. Qo‘llanmada kreativlik tushunchasining mazmuni va mohiyati chuqur tahlil etilgan. Ammo kreativlik masalasining ilmiy-nazariy, ilmiy-pedagogik jihatlari hamda kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarni o‘zlashtirish jarayonida maxsus ilmiy tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etilmagan. Bugungi kundagi zamonaviy uzlucksiz ta’lim tizimi kreativ yondashuvni talab etadi. Kreativ yondashuv bevosita innovatsiyalar bilan bog‘liq jarayondir. Negaki o‘qituvchining ijodiy faoliyat yuritishi uchun, u albatta o‘zining sohasidagi eng so‘nggi yangiliklardan, shu bilan bir qatorda butun jamiyatdagi voqealarni hoidisalardan xabardor bo‘lishi, innovatsion yangiliklarni o‘z faoliyatida

o‘rinli foydalana olishi lozim. Demak, o‘qituvchi har qanday vaziyat, har qanday jarayon va har qanday paytda eng samarali yo‘lni izlab topishi va uni amaliyotga joriy qilish orqali mashg‘ulot jarayonini samarali tashkil etishi, o‘quvchilar ongiga tez, tushunarli, qulay, oson va samarali tarzda yetkazib berishi ham kreativlikning bir ko‘rinishi deyish mumkin.

Yuqoridagi pedagog olimlar, ayniqsa olima R.A.Mavlonova tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan tanishar ekanmiz, ularning barchasini umumlashtirgan holda quyidagi fikrlarni e’tirof etish mumkin:

1. Kreativlik shaxsni innovatorlikka (yangilik yaratish) undovchi pedagogik kategoriya hisoblanadi.
2. Kreativ salohiyat o‘qituvchining kasbiy va shaxsiy sifatlarining integratsiyasidir. Chunki, o‘qituvchi tabiatan qiziquvchan, intiluvchan bo‘lmas ekan, u hech qachon ijodkorlikni namoyon eta olmaydi.
3. Kreativlik o‘qituvchilarda o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan sifat emas, u o‘qituvchining yangiliklarga intilishi, yangiliklarni o‘zlashtirish va o‘zining pedagogik faoliyatida qo‘llay olish jarayonlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yenga olishi, innovatsion yangiliklarni o‘z faoliyatida faol, ijodkorona foydalana olish va o‘z mualliflik g‘oyalariga egaligi, optimal yechimlarni topa olishi bilan bog‘liqdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativlikni rivojlantirish omillarini ta’sirini baholash, kreativlikka asoslangan ta’limiy faoliyatni tashkil etishning metodik tizimini takomillashtirish, kreativlikka asoslangan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish zarurati tug‘ilmoqda.

Mamlakatimizda umumta’lim sifatini oshirish, o‘quv jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etishdagi keng qamrovli islohotlar natijasida boshlang‘ich ta’limda sifatlari ta’lim xizmatlari

samaradorligini oshirish, shiddat bilan o‘zgarib borayotgan globallashuv sharoitida o‘quvchilarda ijtimoiy intellektni rivojlantirishni ta’minlovchi imkoniyatlar salmog‘i kengaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativlikni rivojlantirishning komponentlari va omillarini aniqlashtirish, kreativ faollikni ta’minlashning didaktik ta’minotini takomillashtirishni taqozo etadi O‘quvchilarda kreativlikni rivojlantirish ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda o‘quvchilarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish darjasи, ta’lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o‘qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi. Bunda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi:

1. O‘quvchilarda kreativ faoliyatni egallah mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta’lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta’minlash;
2. O‘quvchilarda ijodiy fikrlash uchun qulay imkoniyat yaratish, talabalar tomonidan bayon qilingan turli-tuman fikrlar va g‘oyalarni bag‘rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o‘quv jarayonidagi faolligini ta’minlash, har bir talabada uning ijodiy fikrlashga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag‘batlantirish;
3. O‘quv jarayonini talaba shaxsining xususiyatlari, ehtiyojlari va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish;
4. O‘quvchilarda individual, kichik guruhlar va jamoada ishslash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qabul qilishga undash.

Ta’lim jarayonida kreativ faoliyatni rivojlantirishning asosi bo‘lgan kognitiv bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg‘ulot shakllari va metodlarini tanlash va tatbiq qilish lozim. Shu bilan bir qatorda muayyan sohalarda chuqr qiziqishlarini, intilishi va qobiliyatini namoyon qilayotgan o‘quvchilarni aniqlash, ularga bundan keyingi rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish lozim. Buning uchun esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning kreativ faoliyatini rivojlantirishga doir shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada:

1. O‘quvchilar kreativ faoliyatini rivojlantirishga doir innovatsion faoliyatga tayyorlas;
2. O‘qituvchi va o‘quvchilar munosabatida hamkorlik faoliyatini vujudga keltirish;
3. Ijodiy faoliyatni rivojlantirishda bilishga doir innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

O‘quvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda quyidagi ish shakllaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega:

- ma’lumotlarni tahlil etish, tezkor qarorlar qabul qilish, ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi treninglarni tashkil etish;
- tasavvurlarni va obrazli qarashlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ijodiy mashqlar, topshiriqlarni bajarish;
- keyslar bilan ishslash;
- guruhiy ish shakllari va debatlarni tashkil etish;
- o‘quv loyihibalarini tayyorlash;
- portfoliolarni mshakllantirish;

– darsdan keyingi va to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘quvchilarning kreativ qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan g‘oyalalar, konsepsiylar hamda ilg‘or pedagogik tajribalar asosida o‘qitish jarayonini tashkil etish kreativlikni rivojlantirishga nisbatan mazmunli-faoliyatli yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

### **1.3. O‘quvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘qituvchi omili**

Hozirda O‘zbekiston yoshlari kreativ (ijodiy) bo‘lishga intilishadi, inson faoliyatining turli sohalarida yangi g‘oyalarni yaratmoqda. Mavjud muammolarni noan’anaviy va sifatli hal qilinishi jamiyatning o‘sishi, rivojlanish sur’atini tezlashtirishiga olib keladi.

Kreativ shaxsnинг shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o‘zgarishining o‘zaro mos kelishi, ijtimoiy- iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogenezi - tug‘ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzuksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog‘liq.

Kreativlik (ing. “create”- yaratish, ijodkor) - shaxs yangi g‘oyalarni ishlab chiqishga tayyorgarligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat ma’nosini ifodalaydi. Kreativlik hayotimizning istalgan sohasida namoyon bo‘ladi. Bu har bir shaxsnинг rivojlanishida muhimdir.

Usiz yangi mahsulotni yaratish, noyob martaba va orzularingizni haqiqatga aylantirishning iloji yo‘q.

Har qanday mutaxassis kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishi uchun o‘quvchilik yillarida poydevor qo‘yiladi. O‘rta ta’lim tizimida o‘qish faoliyatida bo‘lgan o‘quvchilar kreativlik sifatlariga ega bo‘lishlari uchun ularda o‘quv va tarbiya jarayonlarida an’anaviy yondashishdan farqli yangi g‘oyalar haqida fikr yuritishi, o‘ziga xoslik, tashabbuskorlik talab etiladi. Ko‘pincha kreativlik va daho tushunchalari bir biriga sinonim hisoblanadi. Aksariyat hollarda, bu haqiqat... 2022 yil ilk marotaba Xalqaro PISA dasturida o‘quvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalari baholandi. PISA tadqiqotida kreativ fikrlash iborasi o‘quvchilarning tasavvurlarini ifodalash, bilim olishni rag‘batlantiruvchi, haqiqiy va samarali yechim topishga yo‘naltiruvchi g‘oyalarni shakllantirish, baholash va takomillashtirishda faol ishtirok etish kompetensiyasi sifatida ta’riflangan.

Kreativ tushunchalar va yondashuvlar dunyoning turli mintaqalarida insoniyat madaniyatining ravnaq topishiga matematika, tabiiy, falsafa, san’at va gumanitar fanlarning rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Bular bilim va tajribaga asoslangan haqiqiy kompetensiya hisoblanib, insonlarning keskin va murakkab vaziyatlarda kutilgan natijalarga erishishlariga imkon beradi. Dunyo miqyosidagi tashkilotlar va jamiyatlar innovatsion g‘oyalar va kreativ fikrlashga nisbatan umumiy tashabbuskorlik deb qarab, yuzaga kelayotgan murakkabliklarni yengishda innovatsion g‘oyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashga e’tibor qaratmoqda.

Kreativ fikrlashda ta’limning asosiy roli o‘quvchilarni jamiyatda muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalar bilan ta’minlashdan iborat. Kreativ fikrlash bugungi yoshlarning dunyoqarashlarini shakllanishi va rivojlanishi uchun kerakli kompetensiya hisoblanadi. Kreativ fikrlashni o‘rgatish bugungi kun o‘quvchilari va

yoshlariga dolzarb muammolarni yechish uchun yangi texnologiyalardan foydalangan holda hali yaratib ulgurilmagan sektorlarda yoki vazifalarda ishslash, shu bilan birga mashinalar bajara olmaydigan ishlarni osonlikcha amalga oshira olish hamda murakkab mahalliy va global muammolarning yechimini topish qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi. O‘quvchilarning kreativ fikrlashlarini rivojlantirishning ahamiyati mehnat bozori talabiga ko‘ra ortib bormoqda. Maktablar o‘quvchilarni o‘z qobiliyatlarini kashf etishlariga, rivojlantirishlariga va aniqlashlariga shu bilan bir qatorda, kreativ qobiliyatlarini namoyon etishlarida muhim o‘rin tutadi.

O‘quvchilarni o‘zлari yashayotgan jamiyatning ajralmas qismi ekanligini va jamiyatning rivoji uchun o‘zларining muhim hissalarini qо‘shishlari mumkinligi va buni his etishlarida katta ahamiyat kasb etadi. Kreativ fikrlash o‘quvchilarning tajribalar, hodisalar hamda vaziyatlarni yangicha va mazmunli tarzda talqin etishlarini qо‘llab-quvvatlash orqali ularning bilim olishlariga ko‘maklashadi.

O‘quvchining maktabdagи o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi va rag‘batini oshirish uchun barcha o‘quvchilarning ijodkorlikka oid imkoniyatlarini hamda qirralarini ochib bera oladigan yangi uslubdagi o‘rganish shakllari rivojlantirilishi lozim. Bunday rivojlanish uslublari maktabda ta’lim olishga qiziqishlari sust bo‘lgan o‘quvchilarga yordam berib, ularga o‘z fikrlarini ifodalash va oldiga qо‘ygan maqsadlariga erishishga imkon beradi. O‘qituvchilar kreativ fikrlash qanday aniqlanishini, uni yuzaga keltiradigan vaziyatlarni hamda o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qibiliyatlarini rivojlantirishning eng samarali usullari nimalardan iborat ekanini tushunishlari kerak. Kreativ fikrlash qobiliyati qanday rivoj-

lantirilishini yaxshi tushunish, o‘qituvchilarga o‘zлari o‘rganishlari jarayonida ijodiy fikrlarni “yuzaga chiqarishlariga” imkon berishi mumkin.

Kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘quvchi o‘zini erkin seza oladigan o‘z fikrlari, g‘oylari bilan bo‘lisha oladigan muhit yaratishi lozim. O‘quvchilar ongida yuz berayotgan jarayonning faollashtirish uchun o‘rnatilgan qonun qoidalar, standartlardan chetga chiqib, turli savollarga javob berishda erkin harakat qilishlari kerak. O‘qituvchi o‘quvchilardagi kreativlikni noodatiy g‘oyalarni o‘rtaga tashlash va ularni verbal va noverbal tarzda rag‘batlantirish orqali qo‘llab quvatlaydi. O‘qituvchining o‘quvchilarga berayotgan kreativ g‘oyalariga nisbatan to‘g‘ri munosabati ularning mumkin bo‘lgan va mumkin bo‘lmagan shartlarni anglashida muhim ahamiyatga ega. Mazkur elementlarning barchasi o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatining muhim qismi bo‘lib o‘quvchilar muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Shular jumlasidan:

- o‘quvchilarda kreativlikni shakllantirish uchun o‘quvchilarni qiziqarli, murakkab vazifalar, aniq maqsad va vaqt bilan ta’minlash;
- o‘quvchilarga kreativlik muvozanatsiz hissini yuzaga keltirishni anglatish;
- bezovtalik va qo‘rquv hissidan xalos bo‘lishga yordam berish;
- kreativ fikrlash ko‘nikmalarini boshqa ko‘nikmalar bilan rivojlantirishga yordam berish hamda yo‘l-yoriq ko‘rsatish;
- o‘quvchilarni suhbat orqali rag‘batlantirish, konstruktiv sharxlar bilan ta’minlash, yangi ko‘rsatmalar bilan tanishtirib borish;
- o‘quvchilar o‘zlarida kreativlikning boshqa turlarini ham rivojlanira olishlari, guruhlarda ishlay olishlari, hissiy jihatdan ijobiy fikrlarga ega

bo‘lishlari uchun poydevor bo‘ladigan muhitni yaratish jarayonida o‘qituvchilar ushbu omillarni bartaraf etishga e’tibor qaratishlari lozim.

O‘quvchilarda kreativ ko‘nikmalarini rivojlantirishda quyidagilarni xulosa qilamiz:

- birinchidan, pedagoglar o‘quv manbalarini yaratishga nisbatan kreativ yondashib, o‘quvchilarni umumiyligi rivojlanishi hamda kasbiy shakllanishiga e’tibor qaratish;
- ikkinchidan, tayyorlangan o‘quv materiallarini g‘oyaviy, ilmiylik, vizuallik, tizimlilik, o‘quv axborotining izchil bayon etilishi, o‘quv axborotlari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqligikni inobatga olish;
- uchinchidan, topshiriqlar o‘quvchilar yosh xususiyatiga mosligi, amaliy ahamiyatga egaligi, aniq maqsadga yo‘naltirilganligi hamda o‘quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlariga muvofiq tayyorlanishi;
- to‘rtinchidan, kreativlik ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi metod, vosita va texnologiyalarni maqsadli, izchil qo‘llanilishi, shuningdek, pedagogik faoliyatni tashkil etishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan ijodiy foydalanish;
- beshinchidan, o‘quvchining kreativlik qobiliyatlari rag‘batlantirilsa va o‘quvchi tomonidan samimiy muhit o‘quvchilarni juftlikda, kichik guruhlarda faol ishlashlari uchun sharoit yaratilsa, mustaqil, ijodiy, tanqidiy kreativ fikrlash qobiliyatları rivojlanadi.

Bugungi kunda o‘quvchilarning sifatlari ta’lim olishga bo‘lgan talabini qondirish, ta’lim tizimini barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida bir qator yangilik va o‘zgarishlar ta’lim tizimiga kirib kelmoqda. Ta’limda ilg‘or yondashuvlarning qaror toptirilishi, xalqaro tadqiqotlarning yurtimizga kirib kelishi pedagog kadrlarga bir muncha zalvorli mas’uliyatni

yuklamoqda. Hozirgi davrda dars jarayonida o‘qitish va tarbiyalashga oid eng yaxshi an’analarni saqlab qolgan va boyitgan holda o‘qituvchining ijodiy faolligini oshirishga bo‘lgan talab kuchayganligiga guvoh bo‘lmoqdamiz.

Ta’limning asosiy roli o‘quvchilarni jamiyatda muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalar bilan ta’minlashdan iborat. Kreativ fikrlash bugungi yoshlarning rivojlanishlari uchun kerakli kompetensiya hisoblanadi. Bu ularga globallashuv sharoitida jadallik bilan o‘zgarib borayotgan, savodxonlik va raqamlash ilgari surilgan hamda XXI asr ko‘nikmalariga ega moslashuvchan kishilarni talab qiladigan dunyoga moslashishga yordam beradi. Kreativ fikrlashni o‘rgatish bugungi kun o‘quvchilari va yoshlariga dolzarb muammolarni yechish uchun yangi texnologiyalardan foydalangan holda hali yaratib ulgurilmagan sektorlarda yoki vazifalarda ishslash, shu bilan birga mashinalar bajara olmaydigan ishlarni osonlikcha amalga oshira olish hamda murakkab mahalliy va global muammolarning yechimini topish qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi.

Shuningdek, PISA xalqaro tadqiqot dasturida o‘quvchilarning aynan ijodiy (kreativ) fikrlashi baholanadi. Tadqiqotda kreativ fikrlash termini yosh avlodning yaratuvchanlik kompetensiyasi bilan ishslash, bilim olishni rag‘batlantiruvchi hamda haqiqiy va samarali yechim topishga yo‘naltiruvchi g‘oyalarni shakllantirish bilimda yoki ta’sirli tasavvur ifodalarida yuksalish sifatida izohlangan. Kreativ fikrlashga berilgan bunday izoh kreativ fikrlash yo‘nalishidagi strategik maslahatchi ekspertlar guruhi tomonidan berilgan ta’rifga mos tushadi. Bu ta’limning barcha turlarida va barcha fan sohalarida tahsil oluvchi o‘quvchilarning g‘oyalari yaratish

jarayonida qay darajada ishtirok etishi, g‘oyalarning ahamiyati va yangiligini inobatga olib, ularga nisbatan o‘z munosabatlarini qay tartibda bildirishini va o‘zлari kutgan natijaga erishmagunga qadar g‘oyalarni yaratishda davom etishini nazarda tutadi. Shuningdek, bu fanlararo mutaxassislar rahbarligi va ijodga oid adabiyotlarni har tomonlama ko‘rib chiqish orqali ma’lum qilingan.<sup>1</sup> O‘quvchilarda kreativ fikrlashni tarkib toptirishdan avval bu qobiliyatni ularda shakllantiruvchi pedagog-xodimlarda bu sifat bo‘lmog‘i lozimligi kunday ravshan bo‘lib qoladi.

So‘nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta’lim tizimida o‘quvchilarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Salmoqli amaliy ishlar olib borilayotganligiga qaramay, ko‘pchilik o‘qituvchilar hali hanuz o‘zlarida hamda talabalarda kreativlik sifatlarini qanday qilib samarali shakllantirish tajribasini o‘zlashtira olmayaptilar. Ko‘plab talabalarning ta’lim olishga nisbatan qiziqishi yo‘qolgan. Balki o‘quv mashg‘ulotlarining avvaldan rejalahtirilishidan voz kechish, talabalarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlanish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g‘oyalarni o‘ylab topishga majbur qilish ta’lim olishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag‘batlantirishda asosiy omil bo‘lar. Olimlarning fikricha, o‘quv mashg‘ulotlarida yetishmayotgan omil – kreativlik sanaladi.

Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o‘z mohiyatiga ko‘ra jarayon tarzda namoyon bo‘ladi. Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o‘zgarishining

---

<sup>1</sup> Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshi rish milliy markazi. Kreativ fikrlashni baholash (2021) UO‘K 37.014.6:001 KBK 74.00 T 12

o‘zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogenezi – tug‘ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzlucksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog‘liq.

Ma’lumki, kasbiy tajriba bilim, ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq, kasbiy-ijodiy faoliyat ko‘nikmalarining o‘zlashtirilishi nafaqat amaliy ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo‘lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarining yetarli darajada o‘zlashtirilishi talab etadi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi, talabalar e’tiborini ta’lim jarayoniga faol jalb etishni ta’minlaydi.

Patti Drapeau nuqtai nazariga ko‘ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har tomonlama fikrlash talabalardan o‘quv topshiriq, masala va vazifalarini bajarishda ko‘plab g‘oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to‘g‘ri g‘oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda masala yuzasidan bir va ko‘p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo‘lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, topshiriqni bajarish, masalani yechishda talaba yechimning

bir necha variantini izlaydi (ko‘p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to‘g‘ri yechimda to‘xtaladi (bir tomonlama fikrlash).

O‘qituvchining ijodkorligi u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvida aks etadi. So‘nggi yillarda ushbu holat “pedagogik-kreativlik” tushunchasi bilan ifodalanmoqda.

“Kreativ pedagogika” quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

1. o‘qituvchilar tomonidan o‘quv fanlarini past o‘zlashtirayotgan va ularini o‘rganishni zerikarli deb hisoblayotgan talabalar e’tiborlarini fan asoslarini o‘zlashtirishga jalg etish;

2. o‘qituvchilarga talabalarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag‘batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya qilish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish.

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lmasligi tufayli talabalar ham qiziqarli va ajoyib g‘oyalarga ega bo‘lsalar-da, biroq, ularni ifodalashda sustkashlikka yo‘l qo‘yadi. Buning sababi ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan metodlar talabalarda erkin, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmasligi bilan belgilanadi.

Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativligi turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Jumladan, ta’lim jarayoni va ma’naviy-ma’rifiy ishlar loyihalarini tayyorlash, ta’lim jarayonini qiziqarli, jonli, jo‘sinqin tashkil etish va hok. Pedagog tomonidan ushbu shakllarda kasbiy faoliyatning samarali tashkil etilishi uning kreativligi qay darajada ekanligiga bog‘liq bo‘ladi. Pedagog kreativlik potensialiga ega bo‘lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga

e'tiborini qaratishi zarur. Har bir pedagogning o'zini o'zi rivojlantirishi va o'zini o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq. Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishslash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun o'quvchilik yillarda poydevor qo'yiladi va izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur.<sup>3</sup>

Kreativ pedagogika yoki kreativlikka asoslangan pedagogika deganda, istalgan o'quv fani doirasida qo'llash mumkin bo'lgan ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik bilimlar sohasi tushuniladi. Demak, yuqorida fikrga tayangan holda "boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlikni rivojlantirish" deganda "o'quvchilarining turli o'quv topshiriqlarini bajarishi, vaziyatlarni hal etishda noodatiy yondashuvni tarkib toptirish, yangi g'oya va nuqtai nazarlarni erkin ifoda etish, fikrning egiluvchanligi va tasavvurning boyliligini tarkib toptirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon" degan xulosaga kelish mumkin.<sup>2</sup> Pedagogikaning asosiy vazifalaridan biri barcha bolalarning kreativ faoliyati har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Kreativlik – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlar bilan

<sup>2</sup> Nishonova Z. Mustaqil ijodiy fikrlash va shaxs xislatlari Xalq ta'limi.- Toshkent, 2001

bog‘liq ko‘nikmalar majmui sifatida namoyon bo‘ladi. Kreativlik o‘z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan ko‘ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyani qamrab oladi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, histuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi. Ko‘rinib turibdiki, kreativlik bevosita shaxsning individual psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq jarayon hisoblanadi. Uning rivojlanishi esa intellekt-intuitsiya-mantiqiy fikrlash jarayoni ta’sirida kechadi. O‘quvchilarda kreativlikni rivojlantirish ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish darjasasi, ta’lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o‘qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi. Bunda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi:

- o‘quvchilarda kreativ faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta’lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta’minlash;

- o‘quvchilarda ijodiy fikrlash uchun qulay imkoniyat yaratish, talabalar tomonidan bayon qilingan turli-tuman fikrlar va g‘oyalarni bag‘rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o‘quv jarayonidagi faolligini ta’minlash, har bir talabada uning ijodiy fikrlashga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag‘batlantirish;

- o‘quv jarayonini talaba shaxsining xususiyatlari, ehtiyojlari va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish;

- o'quvchilarda individual, kichik guruqlar va jamoada ishslash ko'nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostonstandart yechimlar qabul qilishga undash;

- ta'lif jarayonida kreativ faoliyatni rivojlantirishning asosi bo'lgan kognitiv bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg'ulot shakllari va metodlarini tanlash va tatbiq qilish lozim.

Shu bilan bir qatorda, muayyan sohalarda chuqur qiziqishlarini, intilishi va qobiliyatini namoyon qilayotgan o'quvchilarni aniqlash, ularga bundan keyingi rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish lozim. Buning uchun esa boshlang'ich sinf o'quvchilarning kreativ faoliyatini rivojlantirishga doir shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada:

1. O'quvchilar kreativ faoliyatini rivojlantirishga doir innovatsion faoliyatga tayyorlash;
2. O'qituvchi va o'quvchilar munosabatida hamkorlik faoliyatini vujudga keltirish;
3. Ijodiy faoliyatni rivojlantirishda bilishga doir innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

O'quvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda quyidagi ish shakllaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega:

- ma'lumotlarni tahlil etish, tezkor qarorlar qabul qilish, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi treninglarni tashkil etish;
- tasavvurlarni va obrazli qarashlarni shakllantirishga yo'naltirilgan ijodiy mashqlar, topshiriqlarni bajarish;


- keyslar bilan ishslash; guruhiy ish shakllari va debatlarni tashkil etish;
- o‘quv loyihalarini tayyorlash;
- portfoliolarni shakllantirish;
- darsdan keyingi va to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

Xulosa qilib aytganda, kreativ salohiyat deganda o‘quvchilar boshqalarga taqlid qilmasdan, o‘zлari tanlagan faoliyatlarining barcha bosqichlariga ijodiy yondashadilar degan fikr yetakchilik qiladi. Kreativlik xususida gap borar ekan, shaxsnинг kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, xatti-harakatida muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorlikning muhim omili sifatida ham aks etadi. Chunki har bir inson ham o‘z dunyoqarashi va bilimiga asoslangan holatda faol bo‘lishga intiladi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi, o‘quvchilarning diqqat-e’tiborini ta’lim jarayoniga faol jalg etishni ta’minlaydi. Ijodiy sermahsullik bazaviy resurs yoxud sohaga bog‘liq qobiliyatlar, jumladan, bilim va texnik ko‘nikmalar bo‘lib, ularni yangicha usulda birlashtirish uchun kerak bo‘ladigan qobiliyatlar tayyor qo‘llanmalardan voz kecha olish kabi zarur motivatsiyani taqozo etadi. Bu to‘rt komponent ham turg‘un, ham takomil-lashtirish va muhitga moyil bo‘lgan komponentlardan iborat.

O‘quvchilarning kreativ fikrlash ko‘rsatkichlari ularning tadqiqotchilik qobiliyatlariga qanday bog‘liq ekanligini tahlil etish ham o‘rinlidir. Xuddi o‘quvchi ishtiyoqini o‘lchaydigan uslub kabi, uning tadqiqotchilik qobiliyatini ham kompyuterlashgan testdagи xatti-harakatini

kuzatishdan olingan (telemetriya) ma'lumotlar asosida tahlil qilish mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'quvchilarning kreativ qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan g'oyalar, konsepsiylar hamda ilg'or pedagogik tajribalar asosida o'qitish jarayonini tashkil etish kreativlikni rivojlantirishga nisbatan mazmunli-faoliyatli yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.



### **1.3.1-rasm. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ faoliyatga tayyorlash texnologiyasi**

O'qituvchilarni kreativ faoliyatga tayyorlashning birinchi – moslashuvli-yo'naltiruvchi bosqichi o'qituvchilarni o'quvchilar bilan ishslashning o'ziga xosliklari bilan tanishtirish bilan tavsiflanadi. Mazkur bosqichda o'qituvchining kreativ salohiyatini rivojlantirishning muhim

komponenti ekanligini anglab yetishga motivatsiyani tarkib toptirish muhim sanaladi. Talabalar “Pedagogning innovatsion faoliyatini rivojlantirish” moduli bilan bog’liq mavzularini o‘rganish jarayonida “o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatlari”, “o‘qituvchining ijodkorligi”, “pedagogik kreativlik”, “pedagogik mahorat”, “pedagogik kompetentlik” kabi tushunchalar bilan tanishish asosida kasbiy faoliyatga doir dastlabki bilimlarni egallashadi.

O‘qituvchilarni kreativ faoliyatga tayyorlashning ikkinchi – tayanch bosqichi o‘qituvchida faoliyatga ijodiy yo‘nalganlik, kreativ savodxonlik, ijodiy ko‘nikma va qobiliyatlarni rivojlantirishda o‘z ifodasini topadi. Mazkur bosqichda o‘qituvchilar tomonidan kreativ faoliyatga qo‘yiladigan quyidagi talablar o‘zlashtirilishi lozim:

- o‘quvchining individual o‘ziga xosliklarini aniqlashtirish;
- individual ish rejasi asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish (tyutorlik);
- kichik guruhlarni shakllantirish va ishini tashkil etish (fasilitatorlik);
- o‘quvchiga individual yordam ko‘rsatish (mentorlik);
- liderlik sifatlarini shakllantirish; ijodkorlikka yo‘naltirilgan dasturlarni ishlab chiqish (edvayzerlik);
- erkin ishtirot etish turidagi mashg‘ulotlarni tashkil etish;
- ota-onalar bilan ishslash;
- o‘quvchilar o‘rtasida shaxslararo munosabatlarni shakllantirish.

Shuningdek, mazkur bosqich o‘qituvchining umumkasbiy va kreativ faoliyatga yo‘naltirilgan kreativ sifatlarni o‘zlashtirish, diagnostik natijalar

asosida o‘zining kasbiy rivojlantirish yo‘nalishlarini aniqlash kabilarni o‘zlashtirishni ko‘zda tutadi. Aynan ushbu bosqichda o‘qituvchida o‘zini-o‘zi namoyon etish va o‘zini-o‘zi rivojlantirish namoyon bo‘lishi kuza-tiladi.

O‘qituvchilarda o‘quvchilar bilan ishlashning uchinchi – kreativ-prodiktiv bosqichi mazkur jarayonni amalga oshirishga doir barqaror motivlarni qaror toptirish, o‘quv-kasbiy vazifalarni hal etishga yo‘nal-tirilgan kreativ savodxonlik, kreativ ko‘nikma va qobiliyatlarni maqsadga yo‘naltirilgan tarzda qo‘llash va faollashtirish bilan tavsiflanadi.

Mamlakatimiz ta’lim sohasida amalga oshirilgan va davom etayotgan islohotlar asosini ham o‘qituvchi shaxsining zamonaviy qiyofasini yaratish masalasi tashkil etadi. Buning uchun tabiiy ravishda jahonning ilg‘or ta’lim-tarbiya kontseptsiyalariga tayanib ish ko‘rish zarurati oldingi o‘ringa chiqadi. Ilg‘or xorijiy tajriba va texnologiyalarga ko‘ra o‘quv-chilarni tarbiyalash hamda rivojlantirishda o‘qituvchilarni o‘z o‘quvchilari uchun maslakdosh, yetakchi, maslahatchi sifatida shakllantirish vazifasi belgilab qo‘yilgan. Tadqiqot jarayonida o‘qituvchilarni o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishga tayyorlashda edvayzerlik faoliyatiga yo‘naltirish muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Edvayzerlikning kontseptual asosini “o‘qituvchi – o‘quvchi” munosabatida an’anaviy ta’limda mavjud bo‘lgan bir tomonlama yo‘nalganlik, ya’ni ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik vazifalarning barchasi o‘qituvchi zimmasida bo‘lishi emas, balki o‘quvchining ana shu jarayonning faol a’zosiga aylanishi tashkil etadi. O‘qituvchi-edvayzer ayni jarayonni tashkil etishning ilg‘or texnologiyalariga yo‘naltiruvchi yetakchi maslahatchi maqomini oladi, o‘quvchilar iqtidorining kashfiyotchisiga aylanadi.

## **1-bob bo‘yicha xulosalar**

Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi.

Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagi shartlarga e’tibor qaratish zarur:

- ular tomonidan ko‘p savollar berilishini rag‘batlantirish va bu odatni qo‘llab-quvvatlash;
- bolalarning mustaqilligini rag‘batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;
- bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;
- bolalarning qiziqishlariga e’tibor qaratish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining kreativ salohiyatini takomillashtirish mobaynida uning o‘sishi, qandaydir yangi xotiraning mahsulдорligini oshirish uchun ta’lim jarayonida o‘zini-o‘zi nazorat qilish, materialni takrorlashda tekshirish, eska tushirish, mashq qilishdan unumli foydalanish zarur. Agar boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga eslab qolish va eslash usullari o‘rgatilmasa, ular materialni bevosita takrorlashda, uzoq vaqt to‘xtalib qoladilar.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi.

Mamlakatimizda umumta’lim sifatini oshirish, o‘quv jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etishdagi keng qamrovli islohotlar natijasida boshlang‘ich ta’limda sifatli ta’lim xizmatlari samaradorligini oshirish, shiddat bilan o‘zgarib borayotgan globallashuv sharoitida o‘quvchilarda ijtimoiy intellektni rivojlantirishni ta’minlovchi imkoniyatlar salmog‘i kengaydi.

Ta’lim jarayonida kreativ faoliyatni rivojlantirishning asosi bo‘lgan kognitiv bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg‘ulot shakllari va metodlarini tanlash va tatbiq qilish lozim. Shu bilan bir qatorda muayyan sohalarda chuqr qiziqishlarini, intilishi va qobiliyatini namoyon qilayotgan o‘quvchilarini aniqlash, ularga bundan keyingi rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish lozim. Buning uchun esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirishga doir shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

## **II BOB. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA TA’LIMIY O‘YINLARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI**

### **2.1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ qobiliyatni rivojlantirishning metod, vosita va shakllari**

Boshlang‘ich ta’lim davridayyoq mavjud fikriy faoliyat tajribasi asosida o‘quvchini turli abstrakt-mantiqiy fikrlash operatsiyalarini o‘zlash-tirishga o‘rgatish zarur. Ana shu asosda boshlang‘ich sinfdagi o‘quvchida bosqichma-bosqich mantiqiy fikrlash rivojlanadi. Biroq o‘quvchidagi “kreativlik tabiatini” so‘nishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim.

O‘quvchilarning ijodiy bilish faoliyati o‘quv faoliyati jarayonida egallanadigan evrologik fikrlash tajribalari asosida rivojlanadi. Maktab o‘sib kelayotgan avlodga taqdim etadigan ijtimoiy tajribalarni tahlil etish asosida ijodiy bilish faoliyatining yangi muammolarni hal etish bo‘yicha izlanishli, tashabbuskorlikka asoslangan umumiy elementlari mavjudligini ajratib ko‘rsatish mumkin. Bu esa, boshlang‘ich katta yoshda bajariladigan o‘quv topshiriqlari orqali o‘quvchilar ijodiy faoliyat tajribasini o‘zlashtirishi haqidagi fikrni tasdiqlaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ijodiy fikrlash va tasavvurlarni boyitishga yo‘naltirilgan mantiqiy topshiriqlarni bajarish orqali asli genetik mavjud bo‘lgan fikriy faoliyatni o‘zlashtiradi. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning yozish, o‘qish ko‘nikmalarini egallashlari asosida ularda kichik maktab yoshidayoq ijodiy faoliyat uchun zarur

tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan fikrlash tajribasini qaror toptirish lozim. O‘quvchilarda ijodiy faollikni shakllantirishda boshlang‘ich ta’limda kreativ o‘quv-tarbiyaviy muhitning tashkil etilganligi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur vaziyatda rivojlantiruvchi, shu jumladan, “boyitilgan” ta’limga alohida e’tibor qaratish talab etiladi, material mazmuni va ijodiy jarayonni tashkil etish shakllari o‘zgaradigan qo‘srimcha mashg‘ulotlar o‘tkazish talab etiladi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili konkret ijodiy faoliyat ko‘nikmalarini ajratib ko‘rsatish imkonini berdi: topshiriqlarni mustaqil tushunish; nostandard usullar orqali yechimini topishga undovchi ijodiy maqsadni ko‘ra olish va qo‘yish; evrologik fikrlash usullariga tayangan holda vazifani bajarish; voqeal-hodisalarini tahlil etish asosida qiziquvchanlik vositasida o‘z tasavvurlarini boyitish; fikriy faoliyatning intuitiv mexanizmlari (assotsiativlik, analogiya, ishonarlilik, verbal formallashtirish) asosida muammoga yechim topish.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarining ijodiy faolligini shakllantirishda evristik va muammoli ta’limdan tashqari bilishga yo‘naltirilgan, ilmiy asoslangan ta’lim metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, boshlang‘ich ta’limda ishbop, roli, syujetli o‘yinlardan foydalanish tadqiqot doirasida muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘quvchilarining ijodiy faolligini shakllantirishda ijodiy qobiliyatni shakllantirishga, ilmiy-ijodiy izlanishlarga yo‘llaydigan, bilishga oid rivojlantiruvchi faoliyatni tashkil etish shakl va metodlaridan foydalanish o‘z samarasini berdi. Bu borada ijodiy faollikni shakllantirish mashg‘ulotlariga dialog, munozara, bahs, suhbatlar, fantaziya, izlanish, muammolar qo‘yish va ularni yechish mashg‘ulotlari; bevosita ishtirok etishga

doir mashg‘ulotlar, badiiy ijodkorlik, ishbop o‘yinlardan, innovatsion metodlardan foydalanish kabilar eng samarali bo‘ldi.

Keyingi yillarda ta’lim sohasida tub islohotlar amalga oshirilmokda. Mashg‘ulotlarining yangi shakllari paydo bo‘lmokda. Zamonaviy sharoitlarda boshlang‘ich ta’limning muhim vazifalaridan biri boshlang‘ich katta yoshdagи o‘quvchilarining ijodiy faoliyatini tashkil etish sanaladi. Buning uchun esa o‘quvchilarda atrof-muhit va olam haqidagi bilimlarni uzluksiz to‘ldirib va chuqurlashtirib borishga intilishni tarbiyalash, ularning nazariy darajasini oshirish zarur. Bu o‘quvchilarning intellektual va ijodiy faolligini shakllantirish, boshlang‘ich ta’lim jarayonida potentsial imkoniyatlarni, o‘z-o‘zini namoyon qilish uchun sharoit yaratishni talab qiladi.

O‘quvchilarning ijodiy faolligini shakllantirishning samarali va natijali sharti o‘qituvchining ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati sanaladi. Uning natijaviyligi tizimlilik va izchillik, ilmiy-pedagogik ta’minlanganlik, o‘qituvchilarning ijodiy va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati bilan shug‘ulanishga tayyorlik darajasi, o‘qituvchilarning ijodiy faoliyatni tashkil etishga tayyorgarlik darajasiga bog‘liq.

Ijodiy va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining maqsadi – o‘qituvchilarning ijodiy salohiyatini har tomonlama rivojlantirish va realizatsiyalash uchun sharoit yaratish. Bu kabi ijodiy faoliyat vazifalari quyidagilardan iborat:

1. o‘qituvchilarning ijodiy tayyorgarlik darajasini oshirish, ularning intellektual va ilmiy-texnik salohiyatini saqlab qolish va boyitish;
2. ilmiy bilish metodlarini egallash, o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialining ijodiy chuqur o‘zlashtirilishini ta’minlash;

3. o‘quvchilarda badiiy adabiyotlarni o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish;
4. o‘quvchilarning ijodiy ishlarini takomillashtirish, muvofiqlash-tirish va qo‘llab-qo‘vvatlash;
5. o‘qituvchining eksperimentni qo‘yish va o‘tkazish metodikasini egallashi.

O‘qituvchining ijodiy faoliyati asosida quyidagilar yotadi: tadqiqot-chilik jarayoni mantiqini, izlanishli-ijodiy faoliyat texnologiyasini egallaganlik; o‘z faoliyati natijalarini baholay olish; tadqiqot natijalarini rasmiylashtirish va taqdim qilish texnologiyasini egallaganlik; o‘quvchilarning ilmiy ijodkorligi turli shakllarini rivojlantirish uchun mamlakatimiz va xorij tajribasiga asoslangan tashkiliy, metodik va moddiy-texnik sharoitlarni yarata bilish; ijodiy va tadqiqotchilik faoliyatiga yorqin ifodalangan motivatsiyali tobora iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish; o‘quvchilarning eng yaxshi ishlarini tanlovlardan, ko‘rgazmalarga tavsiya qilish va sh.k.

Ta’lim jarayonida o‘qituvchi o‘zining obro‘sidan oqilona va omilkorlik bilan foydalanib, o‘quvchilarda uyushqoqlik, mehnatsevarlik, o‘qishga ijobiy munosabat, o‘z diqqatini boshqarish, xulqini idora etish, o‘zini tuta bilish, qiyinchiliklarni yengish kabi fazilatlarni shakllantirishi lozim. Buning uchun har tomonlama ta’sir ko‘rsatish usulini qo‘llash kerak.

Maqsadga muvofiq o‘qish faoliyati kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning aql-idrogi, sezgirligi, kuzatuvchanligi, uquvliligi, esda saqlab qolish, esga tushurish imkoniyatlarini rivojlantirishi uchun muhim

shart-sharoitlar yaratadi; bolalarda o‘qish, yozish, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Bundan tashqari mazkur ta’lim jarayonida ularning bilimlar ko‘lami kengayadi, bilishga qiziqishlari ortadi, aqliy imkoniyatini ishga solish vujudga keladi. O‘quv fanlariga ijobjiy munosabat, qat’iy shug‘ullanish niyati, jamoatchilik oldidagi mas’uliyatni his qilish, bilim olishning ijtimoiy, ahamiyatini angalsh tuyg‘ulari tarkib topadi.

O‘qituvchilarining muhim vazifalaridan biri o‘quvchilarda materiallarni eslab qolishi uchun muayyan intilishni tarkib topishi, ularga eslab qolishning fikr yuritish yo‘llarini (taqqoslash, tahlil qilishni) o‘rganishdan iboratdir.

Bu vazifani eng avvalo maktab psixologlari qatorida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari amalga oshirishlari shart. Tafakkur atrof-muhitdagi voqe’likni nutq yordami bilan bevosita umumlashgan hoda aks ettiruvchi jarayon.

Xotiraning mahsuldarligini oshirish uchun ta’lim jarayonida o‘zini-o‘zi nazorat qilish, o‘rganilgan materialni takrorlash orqali tekshirish, esga tushurish, mashq qilishdan unumli foydalanish zarur. Agar kichik maktab yoshidagi o‘quchilarga eslab qolish va eslash usullari o‘rgatilmasa, ular materiallarni bevosita takrorlashda uzoq vaqt to‘xtalib qoladilar. Lekin o‘quvchilar materiallarni eslashni xush ko‘rmaydilar va uni osongina tiklash yo‘lini tushunmaydilar. Materialni eslab qolish, esda saqlash, esga tushurish va eslash usullarini o‘rgatish mantiqiy xotira o‘sishining garovidir.

Ta’lim jarayonida bolalarning yorqin, aniq, tiniq, yaqqol tasavvurlari fikr yordamida muayyan vogelikka aylanadi. O‘rganilayotgan fan materiallari eshitilgan va o‘qilgan badiiy obrazlar tizimi yaratiladi. O‘qish

davomida turmush tajribasida to‘plangan taassurotlarni qayta tiklash, yangi obrazlar ijodiy izlanishning eng muhim omili-ijodiy tasavvurni takomil-lashtiradi. Ijodiy tasavvur eng muhim xususiyatlardan biri yaratilgan tasvirlarning yaqqolligi, mantiqiy qonunlarga uzviy bog‘liqligi, g‘ayri tabiiy, ajoyib-g‘aroyib istaklardan uzoqligidir. Shuning uchun o‘quvchi tasavvurida turmushga, voqelikka zid kelmaydigan tasvirlar, timsollar holati toboro kengayadi. Bu esa o‘quvchilar hodisalarini tanqidiy baholash ko‘nikmasi paydo bo‘lganini bildiradi. Natijada u taassurot qurshovidan qutuladi. Yaratilgan obrazlarni tabiat va jamiyatning obyektiv qonunlariga suyangan holda baholash ko‘nikmasi yanada takomillashadi.

O‘quvchilarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida kamolga yetkazish uchun ularni boshlang‘ich sinflardanoq ijodiy faoliyatini kamol toptirish zarur. Chunki boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning didi, dunyoqarashi, salohiyati barcha psixik jarayonlar individual-psixologik xususiyatlari jadal shakllanadi.

Demak, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchi shaxsi ijodiy salohiyatini rivojlantirishga dasturlarda ifodalangan ta’lim mazmunini saralashni taqozo etadi. Chunki, hozirgi davrda dastur va darsliklar o‘quvchining ijodiy qobiliyati va salohiyatini rivojlantirishga doir talabga javob bermaydi. Vaholanki, ijtimoiy gumanitar, ilmiy tabiiy fanlar o‘quvchilar ongiga ta’sir etib, o‘quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishga turtki beradi. Shaxs ijodiy salohiyati tinimsiz va uzlusiz mehnat natijasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida o‘qitish va tarbiya jarayonida ijodiy ta’lim mazmuni (o‘quv-biluv, tashkiliy, pedagogik hamkorlik kabi pedagogik texnologiyalar) asosida shaxsga yo‘naltiriladi.

O‘quvchi ijodiy salohiyatini tashkil etishga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalarning asosiy maqsadi ham umuman olganda ijodiy faoliyatni rivojlantiradi.

Maqsadga yo‘nalganlik quyidagi aniq vazifalarni o‘z oldiga qo‘yadi: o‘quvchining o‘z odiga qo‘ygan maqsadini anglab olganligi, ijodiy faoliyatda ijobiy rag‘bat va ijodkorlikka ehtiyojni his etishi, bilimlar tizimiga ega bo‘lishi, ijodiy faoliyatni tashkil etish, malaka va ko‘nikmalarga erishilgan natijalarni baholashga doir bilim va tasavvurga ega bo‘lishi.

Mazmuniga ko‘ra ijodiy salohiyatni rivojlantirish esa bilimga oid amaliy va ijodiy komponentlarni o‘z ichiga oladi. Kreativlikning texnologik jarayoni esa tushuntirish induktiv diduktiv, reproduktiv, muammoli, qisman izlanuvchan va izlanuvchan kabi metodlar asosida kechadi. Mazkur jarayon tabiatga muzey va ko‘rgazmalarga ekskursiyalar, vedeoko‘rsatuvlardan foydalanish, uchrashuvlar, mavzuli kechalar, individual ijodiy loyihalar, to‘garaklar, klublar, praktikumlar, turli mavzularda suhbatlar o‘quvchilarning ijodiy ko‘rgazmalarini tanlovlari kabi an’anaviy va noan’anaviy shakllardan foydalilaniladi.

Xulosa qilib aytganda, ta’limda birlamchi vazifa keyingi ta’lim jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan boshlang‘ich umumiyligi ta’lim malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

## **2.2.Ta'limiy o‘yin faoliyati – kreativ qobiliyatni rivojlantirishning o‘ziga xos vositasi sifatida**

Ta’limning zamonaviy globallashuv va axborotlashuv sharoitida rivojlanishi va takomillashuvini innovatsiyalarning turli shakllarini tadqiq etmasdan, bugungi kunda mutaxassisni nimaga va qanday tayyorlashga bir qator yondashuv va munosabatlarni tamoyillar asosida ko‘rib chiqmasdan amalga oshirish mumkin emas. Ijodkor shaxsnинг shakllanishini shaxsnинг o‘zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiyligi mohiyatini to‘laqonli anglash uchun dastlab “kreativlik” tushunchasining ma’no mazmuni tushunib olishi talab etiladi. Kreativlik (lot, ing. “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarashga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyatidir. Ken Robinsonning fikriga ko‘ra, “kreativlik – o‘z qiymatiga ega orginal g‘oyalalar majmui”dir. Gardner esa o‘z tadqiqotlarida “kreativlik–shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma’lim amaliy qiymatga ega bo‘lishi lozim”. Olimning yondashuviga ko‘ra kreativlik “muayyan soha bo‘yicha o‘zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lish” demakdir. Har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z mutaxassisligini chuqr bilishi, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishi, uslubiy modellarni to‘g‘ri tanlash qobiliyatini, ta’lim jarayonidagi ta’sir mazmuni va usullarini loyihalashni bilishi zarur.

Shundagina yetik mutaxasis bo‘lishi mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kreativlik sifatlarini amalga oshirishda jamoanining o‘rni beqiyos. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilar jamoasini ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadni ko‘zda tutuvchi, bиргаликдаги faoliyatni tashkil etuvchi, umumiylay saylab qо‘yilgan organiga ega bo‘lgan, mustahkamlik, umumiylay javobgarlik bilan ajralib turuvchi, barcha a‘zolarimng huquq va majburiyatlarda tengligi sharoitida majburiy aloqadorlikka ega bo ‘lgan o‘quvchilar guruhini tashkil qilishda ijodiy yondashgan holda amalga oshirsa ko‘zlagan maqsadga erishiladi. O‘qituvchining ijodkorligini nomoyon qiladigan jarayon bu – darsdir.

Dars bevosita o‘qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim jarayonining asosiy shakli sanaladi. Darsda har bir o‘quvchi xususiyatlarini hisobga olish, barcha o‘quvchilarning mashg‘ulot jarayonida o‘rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatları va ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qituvchi dars jarayonida o‘qituvchi shaxsiga xos bo‘lgan kreativlik sifatlari: Shu orqali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisida dars jayonida kreativ sifatlarini rivojlantirishning samarali yo‘llaridan foydalansa maqsadlidir.

1. O‘qituvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmasini samarali shakllantirish maqsadida o‘quvchilarga ularni fikrlashga undovchi savollar tarkibida zarur so‘zlarning bo‘lishiga e’tibor qaratiladi. Suvning tabiatda aylanish hodisasini ta’riflab bering o‘rniga yog‘inlarning (yomg‘ir, qor, shudring, do‘l va boshqalar) paydo bo‘lishi algoritmini (ketma- ketligini) tuzib chiqing. Bunda o‘qituvchi har bir jarayonning “bog‘liqlikni topishi,

“fikrni mantiqan bayon eting”, “tasavvur qiling” kabi fikrlardan foydalanish orqali unda kreativ fikrlash ko‘nikmasi namoyon bo‘ladi.

2. Boshlang‘ich sinf oqituvchilari o‘quvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ko‘rsatmali metod va usullardan foydalansa oldiga qo‘ygan maqsadga erishadi.

3. O‘quvchilarda muammoni yechish va innovatsiyon g‘oyalarni ilgari surish jarayonida kreativ va ijodiy fikrlashga urg‘u berishi lozim. Suvning tabiatda aylanishi va yog‘inlarning paydo bo‘lishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni topish”.

Topshiriqni bajarar ekan, o‘quvchilar tabiatda suvning aylanishiu va yog‘inlarning paydo bo‘lishi tizimi bilan bog‘liq turli muammolarni tahlil qilib, xulosaga keladi. Natijada ushbu jarayonda ko‘p tamonlama fikrlash, mushohada yuritish ro‘y beradi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchining ijodkorlik sifatlarini rivojlantirishda ta’limning yordamchi shakli to‘garaklarda foydalanish maqsadlidir. Fan to‘garaklar yo‘nalishi, mazmuni, ish metodi, o‘qish vaqt va boshqa jihatlari bilan ajralib turadi. Ular o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘qishga ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi.Bu bilan o‘qituvchining ijodkorlik sifatlarini ham shakllantiradi.Chunki to‘garak ijodiy yondoshgan holda tashkil qilinadi. To‘garak rahbari(boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi) to‘garak mashg‘ulotida samaradorlikka erishish uchun to‘garak mashg‘uloti ishlanmasida ijodkorlikka alohida e’tibor qaratishi, uni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tuzishi lozim. Misol uchun to‘garaklarni tashkil etishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi “AJIL” (“Amaliy jamoaviy ijodiy loyihalar”) strategiyasi o‘quvchilarda ijodiy faoliyat ko‘nikma va malakalarini, jamoaviy ijodiy ishlarni tashkil etish ishlarni tashkil etish

tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirish, jamoaviy ijodiy loyiha (ish)lar ning shakllari to'g'risidagi tushunchani hosil qilishga ko'maklashishga xizmat qiladi. "Ajil" texnologiyasini to'garak jarayonida "Men – jamoaviy ish tashkilotchisiman" mavzusidagi blits-o'yin o'tkazilgandan so'ng qo'llash maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinf o'qituvchining ijodkorlik sifatlarini rivojlantirishda yana bir jihat ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning o'rni juda kattadir. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish ham pedagog faoliyatining muhim yo'nalishi hisoblanadi. Shunday ekan, boshlang'ich sinf o'qituvchisi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishga ham ijodiy yondasha olishi zarur. Bunda u quyidagilarga e'tiborni qaratishi lozim:

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni maqsaga muvofiq, izchil, uzluksiz va tizimli tashkil etish;
- o'quv yili uchun puxta asoslangan ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasini ishlab chiqishi;
- rejadan talabalarning ehtiyoj va qiziqishlariga mos keladigan hamda dolzarb mavzulardagi muammolarga bag'ishlangan tadbirlarning o'rinni olishiga erishish;
- ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning reja uchun emas, balki talabalarning ehtiyojlarini qondirish, ularni shaxs va mutaxassis sifatida shakllanishlarini ta'minlash maqsadida tashkil etish;
- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni ularning yo'nalishi, mazmuni, xarakteriga, ko'lami va xususiyatlariga ko'ra turli shakllardan interfaollik asosida tashkil etilishiga erishish;
- har bir ma'naviy-ma'rifiy tadbirning aniq maqsad asosida tashkil etilishi va albatta, kutilgan natijani kafolatlay olishini ta'minlash;

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va o'tkazishda akademik guruhning barcha talabalari birdek faol ishtirok etishlariga erishish.

Darhaqiqat, boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirishda o'qituvchidan sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilishda noan'anaviy usullardan keng foydalangan holda amalga oshirishi talab qilinadi. O'qituvchida kreativni rivojlantirishda turli xil interfaol metodlarni bilishi va o'zing faoliyati davomida samarali foydalanishi lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib organish, o'z ustida tinimsiz ishlash orqali shakllantiriladi va u astasekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har bir o'qituvchi ijodiy o'z-o'zini tarbiyalash olishi zarur. Bunda o'zini o'ziga xos ijodiy shaxs sifatida anglash, uni yanada takomillashtirish va moslashtirishni talab qiladigan kasbiy va shaxsiy fazilatlarini aniqlash, shuningdek uzluksiz tizimda o'z-o'zini takomillashtirishning uzoq muddatli dasturini ishlab chiqish o'z-o'zini tarbiyalash demakdir.

Boshlang'ich ta'lif jarayoni o'quvchilar ta'limiy faoliyatida ham, o'qituvchilarining pedagogik faoliyatida ham muhim davr hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ta'limiy o'yinlarga bo'lgan munosabati ancha jiddiy. Ularning ko'pchiligi bir qator o'yinlarni boshlang'ich sinflar darslarida foydalanish uchun qulayligini aytib o'tdilar. Ammo bu o'yinlar deyarli bir xil edi. Bundan tashqari "Didaktik o'yinlardan darsning qaysi qismida ko'proq foydalanasiz?" deb so'raganimizda, 10 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchisi "Asosan dam olish daqiqalarida hamda o'tgan mavzni mustahkamlashda" deb javob berdilar. Vaholanki, to'g'ri foydalaniłgan didaktik o'yinlar boshlang'ich sinf ona tili va o'qish

darslarida yangi mavzuni bayon qilishda hamda mustahkamlashda eng qulay metod hisoblanadi. Zero, o‘yin bilimlarni o‘zlashtirish yo‘lidagi har qanday mashaqqatlarni osongina engib o‘tishga, qiyin jarayonni o‘yinlar bilan uyg‘unlashtirgan holda engillatishga yordam beruvchi ta’lim usulidir. Darslarning shu zaylda tashkil etilishi barkamol shaxs tarbiyasida muhim qadam bo‘lib xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida uyuştiriladigan didaktik o‘yinlar ham o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirish vositasi sanaladi. Didaktik o‘yinlarga dam olish yoki vaqt o‘tkazish vositasi emas, balki ta’lim beruvchi faoliyat deb qarash lozimdir.

Ta’limiy o‘yinlarning turli xil tasnifi mavjudligi xususida ishning birinchi bobida to‘xtalib o‘tgan edik. O‘yinlar mazmuni va amalga oshirish shakliga ko‘ra sinflarga ajratilgan edi. Quyida boshlang‘ich sinf ona tili darslarida uyuştiriladigan didaktik o‘yinlar va ularning mustaqil fikrlash bilan bog‘liq o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritamiz.

Tinch o‘yinlar “O‘zim tekshiraman”. Bunday o‘yinlarni o‘tkazishda kichik hajmdagi diktant matni tanlanadi va u darsning kirish qismida uyuştiriladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga kichik hajmdagi diktant yozdiradi. Barcha o‘quvchilar yozib bo‘lishgach, o‘qituvchi xattaxtaga diktantni yozib ko‘rsatadi. Mabodo diktant oldin xattaxtaga yozilib, usti yopib qo‘yilgan bo‘lsa, o‘qituvchi pardani ochadi. O‘quvchilar esa unga qarab o‘zları yozgan diktantni tekshiradilar. Bunday diktantlarni alifbe davrida ham qo‘llash mumkin bo‘lib, o‘qituvchi avvaliga faqat harflardan, so‘ngra (undosh harflar bilan tanishtirilgach) bo‘g‘inlardan iborat quyidagicha turli variantlarda diktant yozdirsa, o‘quvchilarining o‘quv-biluv malakalari shakllana boradi.

1-variant: O, o, I, i, U, u, A, a.

2-variant: -Lo, -no, -to, -mi, -un, -in.

3-variant: Bola, lola, ona, zar, par.

4-variant: Bugun havo issiq.

**“Hikoya”.** O‘qituvchi xattaxtaga bir nechta so‘z yozib qo‘yadi. O‘quvchilar mustaqil ravishda shu so‘zlar ishtirokida hikoya tuzadilar. Shu jarayonda ularning lug‘at boyligi oshishi bilan birga, gaplarni to‘g‘ri tuzish, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadi. O‘qituvchining vaqtiga vaqt bilan rag‘batlantirishi o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini orttiradi. Bu o‘yindan darsdan tashqari mashg‘ulotlarda, to‘garaklarda ham bemalol foydalanish mumkin. Masalan: Nafisa, soat, yomg‘ir, kitob.

**“U kim? Bu nima?”.** Stol ustiga bir qancha predmetlar terib qo‘yiladi. O‘qituvchi shu predmetlardan birortasini ta’riflaydi. O‘quvchilar shu belgilarni asosida gap nima haqida borayotganligini topadilar. Bu o‘yining afzallik tomoni shundaki, uni dars davomida o‘quvchilar diqqatini jamlash, qo‘llariga dam berish maqsadida yoki yangi tovushlar bilan tanishtirish, yangi mavzuni bayon qilish jarayonida foydalanish mumkin. Bu o‘yin o‘quvchilarda ziyraklik, sinchkovlik sifatlarini va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga imkon beradi. Masalan: U shar shaklida. Uni mashhur sportchilarimiz ham stadionlarda o‘ynaydilar. U yosh bolalarning ham sevimli o‘yinchog‘i. (javob: koptok).

**“Topag‘on”.** O‘qituvchi biror belgi asosida savol beradi. O‘quvchilar shu belgini o‘zida aks ettirgan predmetlar nomlarini aytadilar. Eng ko‘p to‘g‘ri javob topgan o‘quvchilar g‘olib sanaladi. Bu o‘yinni o‘tkazish o‘quvchilarga so‘z turkumlari haqidagi dastlabki ma'lumotlar berish

jarayonini engillashtiradi. Bundan tashqari, hozirjavoblik, mustaqillik, ziyraklik, ijodkorlik kabi sifatlarni shakllantiradi.

**“Noto‘g‘ri jumla”.** Bu o‘yin suratlar asosida o‘tkaziladi. O‘qituvchi suratni tasvirlab berish davomida suratga tegishli bo‘lmanan jumlalarni ham ishlataladi. O‘quvchilar ziyraklik bilan shu jumlanı topishlari lozim. O‘quvchilardan bu o‘yin davomida ziyraklik, sinchkovlik, kuzatuvchanlik va diqqat talab qilinadi. Ular suratni sinchkovlik bilan kuzatish bilan bir qatorda o‘qituvchining hikoyasini ham diqqat bilan tinglab turadilar. Har bir noto‘g‘ri jumlanı topish ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchi va darsga qiziqishini orttiradi. Bu o‘yindan faqat ona tili darslarida emas, darsdan tashqari mashg‘ulotlarda ham foydalanish mumkin.

**“Bo‘lishi mumkin emas”.** O‘yin davomida o‘qituvchi matnni o‘qiydi. O‘quvchilar bo‘lishi mumkin bo‘lmanan voqealar ifodalangan jumla yoki gapni topishlari lozim. Hazil-mutoyiba bilan o‘tadigan bu o‘yin ziyraklik, sinchkovlik va kuzatuvchanlikni talab qilishi bilan birga, hikoya tinglash ko‘nikmasini shakllantirishga ham yordam beradi.

XIX asrning oxirida nemis olimi K.Gross o‘yinlarni tizimli o‘rganishga harakat qilgan bo‘lsa, nemis psixologi K.Byuller o‘yinlarni «qoniqish hosil qiluvchi» faoliyat sifatida tadqiq etadi. L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyevlar fikricha, o‘yinlarni nazariy jixatdan ijtimoy tabiatiga ko‘ra ma’lum faoliyatiga yo‘naltirilganligi bilan bog‘lab, tadqiq etgan bo‘lsalar, D.B.Elkonin shaxs xulqini boshqarishni tarkib toptirib, uni takomillashtiruvchi faoliyat sifatida talqin etadilar. Lekin o‘yinlarni yagona va eng muhim asosiy xususiyati uning ta’limdagi axamiyatligidir. O‘yinlarda bolaning xulqi erkin shakllanadi va ijtimoiylashadi. O‘yinlarning eng muhim jihatni uning ikki tamonlama xarakterga egaligi bo‘lib,

uning dramatik san'atga ham mosligidir. Bir tamondan o'yin ishtirok-chilari uni amalgam oshirishda muayyan nostandard vazifalar bilan bog'liq xaqqiy faoliyatni bajarsalar, ikkinchi tamondan esa o'yinlar bu faoliyatning aksariyat paytlarida ma'suliyatni his etgan holda haqiqiy vaziyatlardan chetga chiquvchi shartli xususiyat ham kasb etadilar. Demak, o'yinlarning ikki tomonlama vazifani bajarishi uning rivojlanuvchi natijaga ega bo'lishiga sabab bo'ladi. O'yin faoliyati elementlaridan ta'lim jarayonida keng foydalilaniladi. Ular ishbop oyinlar, dedaktik o'yinlar, rolli o'yinlar, kompyuter o'yinlari shular jumlasidandir.

Ishbop o'yinlar kasb faoliyati predmeti yoki ijtimoiy mazmunini qaytadan yaratish shakli bo'lib, amaliyotning ana shu turiga xos munosabatlar tizimini modellashtirishdir. Ishbop o'yinlarni o'tkazishda uning qatnashuvchilari faoliyatini maxsus (o'yin tarzida) imitatsiya modelida rivojlantirishdan iboratdir. O'yinlarning xarakteriga ko'ra o'quv jarayoni o'yinlari tadqiqotchilik o'yinlari, boshqaruv va attestatsiyaga doir o'yinlar turiga bo'linadi. O'quv jarayoniga doir o'yinlar o'quv predmetlar bo'yicha istiqbolda kasbiy faoliyatini to'g'ri tashkil etish va shaxsni maqsadga muvofiq shakllantirishga shart-sharoitlar yaratadi. Ana shu shart-sharoitlar natijasida olingan yangi bilimlar kelgusi kasbiy faoliyatni to'g'ri yo'lga qo'yishga yordam beradi. Ma'lumki, ta'lim hamkorlikka asoslanib, jamoaviy xarakter kasb etadi; kasbga xos faoliyat qoidalari va jamoaning ijtimoiy qoidalariiga mos holda amalga oshadi. Ana shu ma'noda ta'limning didaktik va tarbiyaviy ahamiyati o'zaro birlashib, o'yin faoliyati shaklida o'quvchilarning faolligi ortadi. Ishbop o'yinlarda tavsiya etilgan muammoli topshiriq maqsadga muvofiq dialogik muloqot

asosida ishtirokchilarni rag‘batlantiradi, qiziqishlarini orttiradi, emotsiyonal ruh paydo qiladi.

Didaktik o‘yinlar ta’limiy maqsadlarni amalga oshiradigan va ularga moslashtirilgan bo‘ladi. Didaktik o‘yinlar tizimidan birinchi marta maktabgacha jarayonida foydalanishga doir F.Frebel va M.Montessorilar ishlab chiqqan bo‘lsa, boshlang‘ich ta’lim uchun O.Dikroli tadqiqotlar olib borgan. 60-70 yillardan boshlab faqat boshlang‘ich ta’limda emas, umumiy o‘rta ta’limda ham foydalanila boshladi. 80-yillarda ayniqsa, ishbop o‘yinlar keng tarqala boshlandi. Ishbop o‘yinlarning asosiy xususiyati o‘yin rejasining o‘quv maqsadiga yo‘nalganligidadir. Chunki o‘quv maqsadi o‘yin vazifalari doirasida etiladi. Demak, o‘yinlar bolalarning asosiy faoliyat turi bo‘lib, u orqali kichik maktab yoshdag‘i o‘quvchilar hayotni, borliqni, tevarak-atrofni o‘rganadilar va unga moslashadilar. O‘yin paydo bo‘lishi uchun quydagilar muhim sanaladi:

- o‘yin ishtirokchilari bilan bo‘lgan muloqatdan qoniqish hissining paydo bo‘lishi;
- tabiiylik, emotsiyonal hissiyorning vujudga kelishi;
- o‘yin davomida o‘yuvchilarning o‘zining tabiiy ehtiyojlarini qondirishga harakat qilishi va hokazolardir. Ijtimoiy-psixologik ahamiyati jihatidan o‘yinlar asosan ikkita vazifani bajaradi;
- ma’lum ijtimoiy bilimlarni egallash;
- zarur ijtimoiy qoidalarni shakllantirish.

Shuningdek, muammo nuqtayi nazardan yondashganda, o‘yinlar o‘quvchining ijodiy faoliyatini faollashtirish bilan uning ijodiy qobiliyatini o‘stiradi.

Ma'lumki, bolalar o'yining sifati va samaradorligi unda ishtirok etuvchilarning hayotiy kuzatishlari va shaxsiy tajribasiga bevosita bog'liq bo'ladi. Bunda ongilik, tashabbuskorlik va irodalilik kabi sifatlar ahamiyat kasb etadi. Shu sababli turli ijtimoiy-psixologik tavsifga ega o'yinlarga o'quv jarayonida foydalanish, shakshubhasiz o'z samarasini ko'rsatadi. Aynan faol o'qitish metodlari ham ana shunday o'yinlarga tayanilgan xolda tashkil etiladi. Har bir o'yin bir necha daqiqadan tortib, undan ko'proq vaqt davom etishi mumkin va unda ikkita boladan tortib to o'n o'quvchigacha ishtirok etadi. Masalan, "ishbop o'yinlar" yoki "boshqaruv" deb yuritiluvchi o'yinlar bilim va ko'nikma hosil qilishga qaratilgan bo'ladi.

Mazkur o'yinlarning nazariy va amaliy jihatdan mohiyatini bir qator olimlar Y.M.Belchikov, M.M.Birshteyn, V.N.Burkov, Y.V.Geronimus, V.Y.Platov, B.Qodirov, V.M.Karimova, R.Sunnatova, Z.Nishonova va boshqalar o'z tadqiqotlarida bayon qilib o'tganlar. Ular o'z ilmiy ishlarida guruh sharoitida zamonaviy o'qitishning pedagogik va psixologik texnologiyalari ustida fikr yuritar ekan, xususan, "Ishbilamonlik" o'yinlarini o'tkazish metodikasiga doir bir qator qimmatli fikrlarni bildirdilar.

"Ishbop" o'yinlarni faol o'qitish metodlaridagi o'rmini (ayniqsa kichik maktab yoshidagilar uchun) yaqqol tasavvur etish uchun metodlar majmuini keltirib o'tamiz. Faol o'qitish metodlarining oddiy klassifikatsiyasini rus olimi N.N.Kozlenko quyidagicha tavsiflaydi: "Faol o'qitish metodlariga" "Ishbilamonlik" o'yinlaridan tashqari real vaziyatlarni tahlil qilish va rolli o'yinlarni takomillashtirish jarayoni kiradi. "V.M.Karimovaning ta'kidlashicha, "faol o'qitish metodlariga, eng avvalo, bahs, munozara yo'li bilan va malakalar hosil qilish tushuniladi...».

V.Y.Platov faol o‘qitish metodlari quyidagi real vaziyatli o‘yinlardan iborat, deb ta’kidlaydi:

1. Rolli o‘yinlar
2. Immitativ o‘yinlar
3. Faoliyatga qaratilgan tashkiliy o‘yinlar
4. “Ishbilarmonlik” o‘yinlar.

V.Y.Platov fikricha, “Ishbop” yoki “boshqaruv” deb ataluvchi o‘yinlarning quyidagi asosiy qirralari mavjud:

1. Obyekt modelining mavjudligi
2. Rollar mavjudligi
3. Qaror qilish jarayonida rolli maqsadlarning tafovuti
4. U yoki bu rollarni bajaruvchi ishtirokchilarning bir-biriga ta’siri.

Rolli o‘yinlarda eng avvalo, ishtirokchi shaxs sifatida o‘zligini namoyon qila boshlaydi. Faol o‘qitish metodlari tarkibiga kiruvchi imitatsion o‘yinlar qatoriga boshqaruv o‘yinlarini yoki rollarni taqsimlash vaziyatlarini kiritish mumkin. “Ishbilarmonlik o‘yinlar” mutaxassislarini o‘qitishda va ularning kasbiy sifatlarini takomillashuviga xizmat qiladi. “Kompyuterli ishbilarmonlik” o‘yinlari shunday psixologik vaziyatlar majmuiki, bunda o‘yin ishtirokchilari bir vaqtning o‘zida ham o‘yin ishtirokchilari bir vaqtning o‘zida ham o‘yin ishtirokchisi, ham kuzatuvchi bo‘lish imkoniyatlariga ega bo‘ladi. Ishbop o‘yinlar keng ma’noda shunday usul turiki, bunda turli ishlab chiqarish vaziyatlarida, boshqaruv qarorlarini qabul qilish immitatsiya qilinadi va bu o‘yin shartlari bir guruh insonlar orasida EHM bilan muloqot tartibidagi ish rejimida o‘ynalishi mumkin.

“Ishbop o‘yinlar”- faol o‘qitish metodlaridan bo‘lib, u real o‘rganilayotgan obyektni to‘g‘ri anglash maqsadida tahsil oluvchining u yoki bu vaziyatni o‘yin holida talqin qilishga qaratilgan usuldir. Ishbilarmonlik o‘yinlar keng tarqalgan o‘yin metodlaridan bo‘lib, ular mohiyati jihatdan ma’lum obrazlarga kirish, o‘scha obrazga xos bo‘lgan hissiyotlarni o‘z boshidan kechirishni taqozo etadi. Shunday qilib ishbilarmonlik o‘yinlari qo‘llash sohalari nihoyatda ko‘p. O‘quv maqsadlarida kompyuterdan foydalangan holda qo‘llaniladigan ishbilarmonlik o‘yinlari o‘quvchilarning hayotida to‘g‘ri mavqega ega bo‘lishlari, o‘zi istagan, orzu qilgan hayotiy vaziyatlarni yaratishga o‘rgatadi va undaydi, eng asosiysi ishlab chiqarish jarayonida o‘zini erkin muloqotga oson kirishuvchi shaxs, bilimdon mutaxassis sifatida namoyon qilishga zamin yaratadi.

### **Ishbilarmonlik o‘yinlarining tuzilishi.**

1-bosqich Tayyorlanish bosqichida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari har xil holatlari masalalarni yechishning nazariy asoslarini o‘rganadilar. Obyekt sifatida o‘yin modeli, o‘yin holatlari ishtirokchilari majburiyatları, o‘yin o‘tkazish tartib va qoidalar hamda o‘quvchilari bilimini baholash tizimi bilan tanishiladi. Ko‘rgazmali qurollar, kerakli ko‘rsatmali materiallar dars uchun tayyorlanadi. Ayrim masalalar mustaqil o‘rganiladi.

2-bosqich. Kirish qismi. Ishbop o‘yinida guruhlar tashkil qilinadi, liderlar tanlanadi, ishtirokchilarga rollar taqsimlanadi. Xodimlar tanlashda qatnashchilar anketa so‘rovi yordamida aniqlanadi. Lavozimlarga tayinlashda buyruq loyihasi ko‘rib chiqilib va yuqorida tasdiqlanadi. Rol taqsimoti qatnashchilarning shaxsiy jihatlaridan va solohiyatidan kelib

chiqqan holda eksperiment usuli yordamida belgilanishi mumkin. Bu bilan qatnashchilarining shaxsiy jihatlari va salohiyatlari belgilangan rollarga mos kelib o‘yin yuqori darajada o‘tadi.

3-bosqich. O‘yin jadvalini amalga oshirish, bir tomonidan barcha guruhlarni bir xil yuklamalar bilan ta’minlab, ikkinchi tomonidan vazifalarni taqsimlab qarorlar qabul qilish jarayonini tezlashtiradi va ularning guruhlarida muhokama qilish ishlari olib boriladi.

4-bosqich. Xulosa chiqarish bosqichi, o‘yin natijalarini tahlili rahbar tomonidan yoki ishtirokchilar tomonidan olib boriladi. Ishtirokchilar tomonidan baholash jarayoni olib borilganda erkin suhbat shaklida o‘tkazilib, o‘qituvchi tahlil yo‘nalishini boshqarib va tuzatishlar kiritib turadi. Ishbilarmonlik o‘yinlarining g‘oliblari e’lon qilinadi. Qabul qilingan boshqaruв qarorlarining asosiy jihatlari va o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rsatiladi, bunda katta iqtisodiy samara beradigan, qabul qilingan, muhim qarorlar alohida ta’kidlanadi. O‘yin guruhlari rahbarlarining tavakkal qilishdan ishbilarmonligi guruh umumiy balini belgilashda hisobga olinadi hamda kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha maslahatlar beriladi. Ishbilamonlik o‘yinidan olingan natijalar bo‘yicha o‘quv jarayonini tashkil etish bo‘yicha maslahatlar taklif qilinadi. Ishbop o‘yinlarining belgilari:

- boshqaruв obyekti va muhitning modeli va mavjudligi.
- rollarning mavjudligi.
- qaror qabul qilishda rollarning faoliyat maqsadlarining farqliligi. - ishtirokchilarining o‘zaro munosabati.
- umumiy maqsadning mavjudligi.
- jamoa bo‘lib qarorlar ishlab chiqish.

- o‘yin davomida qarorlar tizimini tadbiq qilish. - qarorlarning ko‘p variantliligi.

- hissiy zo‘riqishni boshqarish.

- o‘yin ishtirokchilarini jamoa tomonidan alohida baholash.

Intellektual-ijodiy o‘yinlar ham ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘yinda shaxsining kommunikativ sifatlashni rivojlantirish intellektual savodxonligi, ziyrakligi, qarorlar qabul qilishda ta’lim zukkolikni rivojlantirish, xalq ijodkorligiga oid bilimlarga ega bo‘lishi, sinfdagi salohiyatli o‘quvchilarni aniqlash va ularni rag‘batlantirishga oid maqsad va vazifalar qo‘yiladi.

Teleo‘yinlarda namoyish etiladigan “O‘yla, izla, top”, “Oltin toj” kabilar shular jumlasidandir. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning intellektual darajasini rivojlantirish uchun sinfda va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda shunday o‘yinlarni tashkil qilish mumkin. O‘yin yetti turda o‘tkazilishi mumkin. Har bir turda o‘quvchilar bilimi ballar asosida baholanib boradi. Musobaqa sakkiztadan ikki guruh o‘quvchi kiritiladi. Birinchi turga 5 ball, ikkinchi turga 10 ball, uchinchi turga 15 ball va hokazo tarzda baholanadi. O‘ylash uchun har bir savolga 2-3 sekund vaqt ajratiladi. Noto‘g‘ri javob berilsa, kuzatuvchi o‘quvchilar javob beradilar. Har bir to‘g‘ri javob bali uchun shu ball yozilgan jeton topshiriladi. To‘rtinchi turdan so‘ng musiqali tanaffus tashkil etish mumkin. Yettinchi tur oxirida guruhda qolgan o‘quvchilar yiqqan ballarga qarab ular rag‘batlantiriladi. 1-tur o‘yin savollari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. Dunyoda eng katta ko‘l (Kaspiy dengizi)
2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi poytaxti (Nukus)
3. O‘zbeklarning eng mashhur raqsi nomi (Andijon polkasi)

4. "Sehrli qalpoqcha" romanining muallifi (X.To'xtaboyev)
5. "Shaytanat" romanining bosh qahramoni (Asadbek)
6. O'zbek taomnomasida eng aziz taom (palov)
7. "O'zbekiston" she'rining muallifi (H.Olimjon)

O'yin nihoyasida ballar yig'iladi va g'oliblar taqdirlanadi. Mazkur o'yin bir tomondan o'quchilarning bilimini namoyon qilib, uning intellektual salohiyatini aniqlashga yordam bersa, ikkinchi tomondan guruhlarning jamoa bo'lib birlashishi, aqliy tafakkurning shakllanishi, axloqiy xulq atvorining tarkib topishiga yo'llaydi. Zero, o'quvchi intellekti individning ilmiy salohiyatining rivojlanishiga asos bo'ladi va uning shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi. muammoni hal etuvchi va boshqalarni o'ziga ergashtiruvchi shaxs sanaladi. Rollar o'ynab bo'linganidan so'ng uning muhokamasi boshlanadi. Unda barcha guruh a'zolari ishtirok etadilar va ularning har biri o'zi turli rollarga kira olishini sinab ko'radi, ya'ni bunda har bir shaxsning o'zidagi va boshqalardagi ko'rsatmalarni his qilishiga imkoniyat tug'iladi. Boshlang'ich sinfda o'qish darslarini samarali tashkil etishga tayyorlash maqsadida o'qish darslarida mashg'ulotlar mustaqil ish va izlanish metodlarida, aqliy hujum usulida tashkil etish mumkin. Bunda o'quvchilarga mакtabda o'qitiladigan hikoya, ertak, she'r, masal kabi adabiy janrlarga xos badiiy xususiyatlarini o'qib o'rganishga yo'llash, asarni mustaqil tahlil qila olish, uning mazmuni va g'oyasini " o'zlashtirish, o'qish malakasi, nutq madaniyatini egallah asosiy ahamiyatga ega bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, ta'lim-tarbiya jarayonida ijodiy xarakterdagи topshiriqlarni bajarishda o'quvchilar muammoli vaziyatlarni aniqlash, tahlil qilish va mustaqil ravishda qaror qabul qilish

ko‘nikmalarini egallaydi, ko‘rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy tavsifdagi izlanishlarni talab qiladigan masalalarni hal qilish uslublari bilan tanishadi. Bugungi kun ta’lim oluvchidan faol harakat qilishni, mustaqil qaror qabul qilishni, hayotning o‘zgarayotgan sharoitlariga tez moslashishni talab qiladi. Buning uchun, ta’lim oluvchi zarur bilimlarni mustaqil egallah va amaliyotda qo‘llash; muammolarni yechishga qaratilgan qarashlarni taklif qilish, yangi muammolarni aniqlash va yechish; erkin va mustaqil fikrlash; innovatsion g‘oyalar yaratish qobiliyatiga ega bo‘lish; o‘zining intellektual salohiyati rivojlantirish ustida mustaqil ishslash kabi ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi lozim. Shu bilan birga dars mashg‘ulotlarida o‘yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobjiy natija beradi. O‘yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o‘quvchilarining o‘yin-topshiriqlarni bajarishga o‘rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishslash imkoniyatlari, o‘rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog‘liq bo‘lishi kerak. Boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlar va ta’limiy o‘yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o‘rganganlarini hayot bilan bog‘lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O‘qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg‘or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta’lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi. Bizningcha, ta’limiy o‘yinlarga qo‘yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

1. Ta’limiy o‘yinlar o‘quvchilar yoshiga mos bo‘lishi kerak;

2. O‘yinlar o‘tilayotgan mavzu mazmun-mohiyatiga mutanosib bo‘lishi lozim;
3. Ta’limiy o‘yinlarni o‘tkazish vaqtি aniq belgilanishi shart;
4. Ta’limiy o‘yinlar ham ta’limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lishi kerak;
5. Ta’limiy o‘yinlarning o‘tkazilish maqsadi, ahamiyati belgilanishi lozim. Yuqoridagi talablarga amal qilingandagina dars samaradorligi ortadi va zamonaviy texnologiyalar ta’lim samaradorligiga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlar va ta’limiy o‘yinlardan, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o‘rganganlarini hayot bilan bog‘lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O‘qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg‘or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta’lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

Dars jarayonlaridan fan doirasidagi mavzularda “**Sergul daraxt metodi**” dan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda mavzu tushuntiriladi, Gapning maqsadiga ko‘ra turlari haqidagi ma’lumotlar aytildi. Mavzuga doir mashq va topshiriqlar shartlari asosida bajariladi va ma’lumotlarni mustahkamlash maqsadida “**Sergul daraxt metodi**” dan foydalilanildi. Ya’ni mavzuga doir savollar beriladi. 3 ta qator uchun 3 ta daraxt sinf taxtasiga ilinadi, ma’lumotlar yozilgan stikerlar esa, (iloji bo‘lsa, gul shaklidagi) daraxtga yopishtirib boriladi. Eng ko‘p gul to‘plagan guruh g‘olib deb topiladi.

Mavzuga doir ma'lumotlarni yanada mustahkamlash maqsadida “**Munosiblik testlari**” dan ham foydalanish ham ahamiyatlidir: Gaplarni to'ldiring! Mevazordan bolalar mazali emas edi Sho'rva unchalik olma terdik Qiziq, onasi uni baralla aytdilar Odamlar bu so'zni buncha maqtadi Shuningdek, “Ma'lumotlar banki” yoki “Ma'lumotlar zaxirasi” metodlari asosida ham grammatikaga oid bilimlar zaxirasini boyitish mumkin. Bunday interfaol usullar til o‘rganishda o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishda yaxshi qo‘l keladi. Til oilalari turlicha bo‘lgan tillarni o‘rganish o‘quvchilarda biroz qiyinchilik tug‘dirishi tabiiy ammo fan o‘qituvchisining vazifasi ana shu murakkablikni osonlashtirib, o‘quvchilarni o‘z faniga qiziqtirishdan iborat ekanligini aslo unutmasligimiz lozim.

### **2.3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda ta’limiy o‘yinlardan foydalanish metodikasi**

Boshlang‘ich ta’lim dasturlari, o‘qitilayotgan o‘quv predmetlarining tahliliy natijalari shuni ko‘rsatadiki, 1-4-sinf o‘quvchilarida ijodiy faoliyatni tashkil etishni bir necha bosqichda amalga oshirish uchun imkoniyat yaratilgan, jumladan, darsda o‘quvchilarning kreativ faoliyatiga yo‘naltirilgan o‘quv materiallarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqdim qilinishi belgilanmagan bo‘lsa-da, mahoratli o‘qituvchi o‘z faoliyatini o‘quvchilarning kreativligini rivojlantirishni turli metodlar asosida amalga oshirishi mumkin.

- og‘zaki so‘rash;
- yozma ishlar o‘tkazish;

- amaliy ishlarni bajarish;
- turli didaktik o‘yinlar o‘tkazish orqali o‘kuvchilarning kreativligini rivojlantirish mumkin.

Bunda o‘quvchilar avval o‘qituvchining topshiriqlarini bajargan holda o‘rganilayotgan tushunchaning umumiy xossalari aniqlaydilar, so‘ngra o‘qituvchi rahbarligida ta’rifni mustaqil holda tuzishga harakat qiladilar. Yangi tushuncha kiritishning bu yo‘li ayniqsa quyi sinflarda o‘z samarasini beradi. Bundan tashqari konkret induktiv yo‘l orqali tushunchalarni kiritish jarayonida muammoli vaziyatlar hosil bo‘ladi, buning natijasida o‘quvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatları shakllanadi.

### **Taqdimot qoidasi**

- Chiqish reglamentiga rioya qilish
- Chiqish navbatiga rioya qilish
- Guruh a’zolari o‘rtasida vazifalarini aniq taqsimlash va ular xatti-harakatini ijodiy faoliycka chorlash
- Ma’lumotlar grafik ko‘rinishida (sxema, jadval, grafik) taqdim etilishi lozim bo‘ladi;
- Har qanday grafik ko‘rinishidagi ma’lumot sharhlanishi talab etiladi.

### **Taqdimotda nimaga yo‘l qo‘yilmaydi:**

- Holatni tasvirlash va uni qayta so‘zlab berishga;
- Ishtirokchilarning so‘zga chiqishlaridagi qarama-qarshiliklarga;
- Tushunarsiz, noaniq, o‘rinsiz iboralarga.

O‘ylab ko‘ring va guruhda taqdimotni baholash ko‘rsatkichlari va mezonlarini muhokama qiling.

Taqdimotni muvaffaqiyatli o‘tkazish qoidalari va sirlariga asoslanib o‘quvchilarning o‘z ish natijalarini taqdimoti samarali o‘tkazildi.

Yoki 4-sinfning “Tarbiya” darsida “So‘z – noyob gavhar” ertagini o‘rganish jarayonida o‘quvchilar “Andisha nima?”, “Andishali inson fazilatlari qaysilar?” kabi savollarga javob berish uchun innovatsion metodlardan biri klasterdan foydalanildi. Natijada, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ijodiy faoliyat yuritishga yo‘naltirildilar. Ular ertak asosida ijodiy fikrlashga harakat qilishib, darsning oxirida o‘zlari mustaqil ravishda “So‘z-noyob gavhar” ertagidan hissa chiqarishga musharraf bo‘ldilar. Andishasiz gaplar: jismoniy aybini topib yuziga solish, dag‘al gap, o‘ylamay gapirish kabi xususiyatlarga oid misollar topishdi, shu mavzuga taalluqli maqollarni saralashdi. Klasterni tuzishda quyidagi qoida o‘quvchilarga dasturilamal bo‘ldi. Avvalambor, o‘quvchilar andisha so‘zi yuzasidan aqliga kelgan barcha fikrlarni yozdilar. G‘oya sifatini muhokama qilmay, ofografiya va boshqa omillarga e’tibor bermay, ajratilgan vaqt tugaguncha tuzilgan klaster bolalarda ijodiy fikrlashga zamin yaratdi G‘oyalar soni, ular oqimi va ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik chegaralanmagandan so‘ng o‘kuvchilar o‘z fikrlariga erk berishdi. Darsdagi ko‘tarinkilik ruhi o‘quvchilarning kreativ faoliyatiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatdi.

Tahlillardan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilarda kreativlikni rivojlan-tirish turli-tuman uslublar orqali amalga oshirish mumkinligi dasturlarda belgilangan. Ammo umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi tadqiqot doirasidagi mavjud ahvol o‘rganilganda, mакtab o‘qituvchilari har doim ham mazkur metodlardan to‘laqonli foydalanishmayapti.

Maktablardagi mavjud ahvol o‘rganilganda, ilg‘or o‘qituvchilar o‘zlarining o‘quv-uslubiy ishlarida zamonaviy metodlar orqali o‘quvchi-larda kreativlikni rivojlantirishga harakat qilishadi, biroq ularning

harakatlarida har doim ham yetarlicha o‘quvchi shaxsini ijtimoiylash-tirishga, unda erkin fikrlash qobiliyatlarini o‘stirishga, qo‘yilgan masala yechimini ijodiy topishga undash motivi kuzatilmaydi.

Ma’lumki, o‘qish orqali bilishga pedagoglar eshitishni, ko‘rish, harakat, sezish organlarini, ba’zida esa hid sezishni ham ishtirok ettirib, o‘quvchilarни obyekiv reallikni bilishga jalb kiladilar, bunda jonli mushohada, abstrakt tafakkur va amaliyot uzviy qo‘shilib ketadi. Shuning uchun ham o‘qish jarayoni bevosita yoki bavosita shaklida ta’lim vositalari va pedagogik imkoniyatlar orqali sodir bo‘ladigan o‘ziga xos jarayon hisoblanadi. Demak, o‘quvchilarning o‘quv faoliyati metodlarini ham o‘qitishning o‘ziga xos sharoitlarida qo‘llaniladigan bilish metodlarining turidir, deb hisoblashga hamma asoslar bor.

O‘quv faoliyati metodlarini bilish metodlari bilan qiyoslashdagi o‘ziga xos xususiyat shundan iboratki, o‘qitish jarayonida yangi ilmiy haqiqatni kashf qilish emas, balki olgan bilimlarini ijodiy o‘zlashtirish vazifasi hal qilinadi. O‘qitish davomida yangi bilimlarni egallash uchun umumiylishga xarakterli bo‘lgan sinab ko‘rish va xato qilishni deyarli mustasno etadigan anche “yengillashtirilgan” sharoitlar mavjuddir. Shuning uchun ham o‘quv faoliyati metodlari bilish operatsiyalari bilan qo‘shib olib.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy faollikka undash davomida o‘qituvchi:

1. O‘quvchilarni obrazli fikrlashga undashi;
2. Aniq muammoni burro ifodalashi;
3. Fikrning doimo tugallangan jumla bilan hamda muhim joylariga urg‘u berib ajratgan holda ifoda etishi;
4. Xushmuomalali va ziyrak bo‘lishi;

5. Qo‘yidagi so‘z birikmalaridan foydalanishi: «faraz qiling», “tasavvur eting”, “ijodiy parvoz eting ...” va shu kabilar.

6. Ko‘rish kontakti (bog‘lanishi)ni saqlashga harakat qilishi-tinglovchilarga qarashga harakat qilish (har bir qatnashchiga 3 sekunddan);

7. Har bir javob va taklifni doimo rag‘batlantirish maqsadga muvofiq.

Boshlang‘ich ta’limda mehnat darslari ham o‘quvchilarning kreativ faoliyatini tashkil etishga mo‘ljallangan. Bunda tajriba – amaliy o‘lchashlar, qog‘oz qirqimlaridan yasaladigan turli figuralarni yasash har doim ijobiy natija beradi. Boshlang‘ich ta’limda o‘quv dasturi asosida rejalahs-tirilgan. “Kartondan guldon tikish”, “Rasm uchun ramka tayyorlash”, “Qush inida - qo‘sh bolasi”- applikatsiya tayyorlash, “Hajmdor gul ko‘ri-nishini yasash”, “Harakatli o‘yinchoq” yasash, “Bahor” applikatsiyasini tayyorlash – bularning barchasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ijodiy ish sifatida uyga vazifa qilib beriladi.

O‘qitishda muammoli ta’limdan foydalanish ham, ijodiy faoliyatni shakllantirishda samarali hisoblanadi. O‘quvchilarning biror-bir haqiqatni mustaqil izlashi va kashf etishi bilan bog‘liq bo‘lgan ta’lim metodlaridan evristik yoki tadqiqotchilik metodlari bilan birga o‘quvchilarni ijodiy fikr “laboratoriysi”ga olib kiradigan jarayon ham asosiy ahamiyatga egadir. Muammoli ta’lim shu jihatdan bir qancha afzalliklarga ega:

1) u o‘quvchilarni mantiqiy, ilmiy, didaktik, ijodiy fikrlashga o‘rgatadi.

2) u o‘quv materialini ishonarli qiladi, bu bilan bilimlarning e’tiqodga aylanishiga ko‘maklashadi.

3) u odatda, ancha ta’sirchan bo‘lib, chuqur intellektual his-tuyg‘ular, u jumladan, ko‘tarinki ruh, hissini o‘z imkoniyatlari va kuchiga ishonch

tuyg‘usini vujudga keltiradi, shuning uchun u o‘quvchilarni qiziqtiradi, o‘quvchilarda ilmiy bilishga jiddiy qiziqishni tarkib toptiradi.

4) haqiqat qonuniyatining mustaqil “kashf etilishi” olingan bilimlarni unutmasligi aniqlab chiqilgan, mustaqil hosil qilingan bilimlar unutilgan taqdirda ham ularni tezda qayta tiklash mumkin.

Muammoli ta’limning asosiy maqsadi – Kadrlar tayyorlash milliy dasturining sifat bosqichi talablari asosida bilim oluvchilarning mustaqilligi va faolligini oshirish, tafakkurini rivojlantirish, o‘zlashtirish natijasida bilimlarni amaliyotga tadbiq etilishini kuchaytirishdan iborat.

Demak, muayyan mavzuni muammo shaklida olib chiqish yo‘li bilan egallanadigan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisi muammoli ta’lim deyiladi.

Muammoli ta’lim quyidagilarda ko‘rinadi:

1. Muammo
2. Muammoli savol
3. Muammoli vazifa
4. Muammoli topshiriq
5. Muammoli vaziyat.

Muammoning o‘zi yunoncha “problem” so‘zidan olingan bo‘lib, vazifa, topshiriq degan ma’nolarni anglatadi.

Muammoli vaziyat-subyektning psixologik holatini ifodalab, muammo bilan duch kelganda, aqliy qiyinchilikni paydo bo‘lishi zudlik bilan hal qilishiga halaqit beradigan yangi bilim va harakat usullarini izlash, ularni topib hosil bo‘lgan qiyinchiliklarni bartaraf etishni ta’minlaydi. Bu esa muammoga psixologik jihatdan yondashishni talab etadi.

Masalan, o‘quvchilarining yosh xususiyati bilim saviyasidan kelib chiqqan holda muammoli vaziyatlar yaratishning quyidagi usullaridan foydalanish mumkin:

1. Ona tili darsligida berilgan mavzularni qiyoslab o‘rgatish orqali muammoli vaziyat yaratish, chunonchi o‘rganilayotgan har bir mavzu o‘quvchilardan tovushlar, so‘zlar va gaplarni qiyoslashni shu asosda umumlashmalar hosil qilishni talab etadi. Bu ham o‘z-o‘zidan ravshanki, muammoli vaziyatni yuzaga keltiradi. O‘quvchilarda “Nima uchun?” degan savolga javob izlashga ehtiyoj tug‘iladi. Masalan “unli va undosh tovushlar” mavzusi o‘rganilayotganda o‘quvchi avval unli va undosh tovushlarni to‘g‘ri nomlashni, keyin qiyoslashni, unli va undoshlar ishtirokida so‘zlar, so‘zlardan esa gaplar hosil qilishni, ularning bir-biridan farqlarini aniqlashni talab etadi.

2. Muammoli savollar berish orqali muammoli vaziyat yaratish.

O‘qituvchi dars mashg‘ulotini muammoli savolni o‘rtaga tashlash bilan boshlaydi:

1.Unli va undosh tovushlarni alohida aytib ko‘ring.

Ularni talaffuz qilishda qanday farqni sezayapsiz?

2.Oltita unli va harf ishtirok etgan so‘z yozing. Ulardagi unlini boshqa unli bilan almashtirib ko‘ring, qanday o‘zgarishlarni sezayapsiz?

3.Undosh tovushlarning talaffuz etib ko‘ring. Shovqin ovozdan hosil bo‘lgan undoshlarni alohida, faqat shovqindan hosil bo‘lgan undoshlarni alohida yozing.

Agar topshiriqlarni bajarish muayyan qiyinchilik tug‘dirsagina, namuna ko‘rsatadi.

4. Ramziy tasvirlar orqali muammoli vaziyatlar yaratish.

Muammoli vaziyat yaratishning bu usulida ramziy tasvirlardan foydalilaniladi. Masalan, “O‘zbekiston qovunlari” rasmlari va nomini berib, mavzusi bo‘yicha matn yaratish topshiriq berilishi mumkin.

5. Muammoli vaziyat yaratishda til hodisalarini guruhlash, ajratish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, so‘zlarni muayyan uyalarga birlashtirib, umumiylar ma’noli so‘zning xususiy ma’nosini yoki xususiy ma’noli so‘zlarning umumiylar ma’nosini topishini talab qilish muammoli vaziyat yaratish imkonini beradi. Masalan, o‘quv qurorollari, mevalar, sabzavotlar, daraxtlar va gullarning o‘nlab hatto yuzlab uyadoshlari borki, o‘qituvchi umumiylar ma’noli so‘zni o‘quvchi hukmiga havola etadi va qolgan so‘zlarni topishni o‘quvchilarga topshiradi.

1. Sabzavotlar: sabzi, ...

2. O‘quv qurorollari: kitob, ... va hokazolar.

Ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda ta’limning bilishga oid qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan motivatsion-qiziqarli tomonlariga ham ko‘proq e’tibor berilishi lozim. O‘quvchilar bilan olib boriladigan ishlarning xarakterli xususiyati ular psixikasining zaif tomonlariga sustlik bilan moslashish emas, balki o‘quvchilar maksimal darajada faollashishi uchun ularni aqliy rivojlanishiga faol ta’sir ko‘rsatish tamoyili bo‘lmog‘i kerak. Tarbiyachi va o‘qituvchilar ayrim bolalar qobiliyati o‘rtacha ekanligi yoki qobiliyatsizligi va hatto mukammal emasligi haqida paydo bo‘lgan tasavvurni sezdirmasliklari lozim. Bunday o‘quvchilar o‘zlari tobora tezlashib va murakkablashib borayotgan ta’lim jarayoniga astasekinlik bilan moslashib boradilar.

Ta’limda darsni to‘g‘ri va samarali tashkil etilishi albatta, o‘quvchilar bilim olishiga ta’sir etadi. Ijodiy faoliyatni rivojlantirishda muhim

masalalardan yana biri o‘qituvchining darsning texnologik jihatdan to‘g‘ri loyihalashga borib taqaladi. Interfaol metodlarni qaysi bosqichda qanday qo‘llash darsni loyihalash vaqtidan boshlanadi. Loyihalash quyidagi bosqichlarda amalga oshadi.

I. Diqqatni jamlash bosqichi

II. Tinglash bosqichi

III. Fikrlash bosqichi

Bu bosqichlar interfaol metodlarni to‘g‘ri, o‘z o‘rnida qo‘llash hamda dars camaradorligini oshirishga yordam beradi.

Diqqatni jamlash bosqichi: bunda o‘qituvchi bolalarning yangi mavzuga oid dastlabki tushunchalarni aniqlaydi.

Maqsadi:

- dastlabki tushunchalar aniq, erkin namoyon qilish;
- o‘z fikrini ifodalay olish;
- darsga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish kabilardan iborat;

Anglash bosqichi: bunda o‘qituvchi o‘quvchilardan olgan dastlabki tushunchalariga qo‘srimcha ta’limotlarni jamlab yangi bilim bilan boyitadi. Ya’ni o‘quvchining bilgan va bilmagan ma’lumoti to‘ldiriladi.

Aniqlash bosqichining maqsadi:

- dastlabki tushunchalardan kelib chiqib, o‘quvchi anglash yangi bilimlar bilan to‘ldirish:

- o‘quvchilar qiziqishini orttirish;
- tahlil qilishga- taqqoslashga o‘rgatish;
- yangi darsni bayon etish.

Fikrlash bosqichi: bu bosqich darsni mustahkamlash qismiga to‘g‘ri keladi. Unda o‘quvchilar dastlabki tushuncha va ma’lumotlarni tahlil qilib

fikrladilar, bilimlarini mustahkamlaydilar. O‘quvchilar o‘tilgan dars, mavzu haqida munosabatlarini bildiradilar.

To‘g‘ri tashkil etilgan dars o‘z samarasini beradi, albatta. Ammo har bir bosqichda qo‘llaniladigan metodlarni chuqurroq o‘rganmay turib, dars samaradorligini oshirib bo‘lmaydi.

Ta’lim standartlari va me’yorlari va an’anaviy ravishda ta’lim natijalarini baholash uchun foydalilanadi. O‘quvchining natijalari standartga qanchalik yaqin bo‘lsa, uning o‘quv faoliyati shunchalik yuqori baholanadi. O‘quvchi tomonidan haqiqiy egallangan va yaratilgan bilimlar hajmi to‘la darajada nazorat qilinmaydi, chunki o‘quvchilarning standart doirasidan tashqaridagi shaxsiy bilim yoki boshqa natijalari an’anaviy maktab nazaridan chetda qolib keladi.

Ijodkorlikda o‘quv natijalarini baholashga yondashuv o‘zgacha. Tashqi berilgan natijalarga erishilganlik darajasi emas, balki ko‘pincha undan chetga chiqishlar tekshiriladi. Ijodkorlikni baholashda o‘quvchilar ta’limiy natijalarining asosiy parametri-standartlarning minimum talablariga mos kelishi emas balki o‘quvchining shaxsan ta’limiy o‘sish darajasidir.

An’anaviy ta’limda o‘quvchi ta’lim mazmunini saralashda amalda ishtirok etmaydi. Ijodkorlik faoliyatida esa ta’limda o‘quvchi ta’limiy samarasi ta’limning yangi mazmunini saralashda ishtirok etadi; bilimning hajmi, malakasi, faoliyat turlari hamda o‘quvchining foydalilanadigan usullari cheklanmagan bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar kreativ faoliyatini rivojlantirishda topishmoqlar xalq og‘zaki ijodining kichik va qadimiyligi janrining ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir.

Topishmoqni o‘rganish, unga javob topish orqali bolalar narsa va predmetlarning kelib chiqishi uning inso hayotidagi o‘rni va roli haqida tasavvurga ega bo‘ladilar, ularning qiziqishi ortadi, ongi va tafakkuri o‘sadi, fikrlash qobiliyati rivojlanadi, tabiat va hayvonot olamini sevish, ardoqla kab hissiyotlari tarbiyalanadi. Topishmoqlardan dars jarayonida foydalanish orqali o‘quvchilarning nutqi boyiydi, takomillashadi. Ular ifodali, mazmunli o‘qishga o‘rganadilar.

Topishmoqlarning matn mazmuni bilan bog‘liq ravishda o‘rganilishi o‘quvchilarning bir tomondan matn mazmunini to‘liqroq tushunishiga va yaxshi esda saqlashiga turki bo‘lsa, ikkinchidan, ularning darsdagi faolligini oshiradi, dam olish muhitini yaratadi, ma’naviy-axloqiy jihatdan kamol toptiradi.

Fikrimiz tasdig‘i sifatida quyidagi dars matnini keltiramiz.

Dars mavzusi: “Topishmoqlar darsi” yoki “O‘yla, izla, top”.

Darsning maqsadi: Xalq og‘zaki ijodi janri bo‘lgan topishmoq haqida o‘quvchilarga tushuncha berish, o‘quvchilarda to‘g‘ri o‘qish malakasini hosil qilish, matn ustida ishlash jarayonida topishmoq janriga xos nazariy tushunchalarни kengaytirish, ularni mantiqiy fikr yuritishga, to‘g‘ri xulosa chiqarishga o‘rgatish.

Dars jahozi: topishmoqlarni guruhlashtirilgan jadval, javloblari aks ettirilgan rasmlar, maketlar. Har bir o‘quvchi uchun topishmoq yozilgan kartochka.

Dars metodi: ko‘rgazmali, evristik suhbat.

Darsning borishi:

O‘qituvchi: “Bugun biz siz bilan 1-sinfda o‘rgangan topishmoqlarimizni yana bir bor esga olamiz hamda ularni quyidagi

jadvalga joylashtiramiz” deydi. So‘ng doskani bo‘r bilan to‘rt ustunga bo‘ladi:

1. Qushlar va hayvonlar haqidagi topishmoqlar.
2. Sabzavot, poliz, mevalar haqidagi topishmoqlar.
3. Predmetlar, ularning belgisini bildiradigan topishmoqlar.
4. She’riy topishmoqlar.

Har bir o‘quvchi o‘z kartochkasidagi topishmoqni o‘qiydi.

Sinf bilan birgalikda uning javobi topiladi hamda jadvaldagi o‘rnini aniqlanib, shu ustun qatoriga yoziladi.

1-o‘quvchi.

-Osti tosh, usti tosh

O‘rtasida jondor bosh.

Javobi: toshbaqa (1-ustunga yoziladi).

2-o‘quvchi:

-Ichi- buyoq, sirti-tayoq.

Javobi: qalam (3 ustunga yoziladi)

3-o‘quvchi:

-Chopsa chopilmas,

Bo‘lsa bo‘linmas

Ko‘msa ko‘milmas.

Javobi: soya (4 ustunga yoziladi)

4-o‘quvchi:

Palak ostida

Yotar talash tosh

Uni pishirsang

Bo‘lar shirin osh.

Javobi: kartoshka (2-ustunga yoziladi)

Shu tariqa har bir o‘quvchi qo‘lidagi kartochkadan foydalanib, topishmoqni o‘qiydi, javob topadi va javobini tegishli guruhlarga ajratib yozadi. Shu holatda o‘quvchilar bar necha ta’limiy vazifalarni bajaradilar.

Birinchidan, topishmoqni topish jarayonida uni bir yoki ikki marta, ayrim hollarda esa uch marotabagacha o‘qiydilar, ifodali o‘qishga, fikrlashga o‘rganadilar, o‘qitish texnikasini egallaydilar, taqqoslash, solishtirish kabi amaliy ishlarni bajaradilar.

Topishmoqda yashirin berilgan predmetni topishda qiyinchiliklar tug‘ilsa, o‘qituvchining o‘zi ifodali o‘qib berishi hamda topishmoqning belgisini bildiruvchi so‘zlarga alohida urg‘u berishi shart.

Chiq-chiq der yo‘q to‘xtovi,

Vaqtning aniq o‘lchovi.

Javobi: (soat)

Tinmay o‘qisang agar,

Ko‘p narsani o‘rgatar.

Bilsang, uka, o‘ylab top,

Bilim koni, u- ...

Javobi: (kitob)

Topishmoqni topishda o‘quvchilar qiyalsalar, uning javobi bo‘lgan predmetni yoki sabzavot namunalarini 1 qatorga terib qo‘yish mumkin.

Shu tariqa mashg‘ulot davom ettiriladi.

O‘quvchilarning darsdagi holati hisobga olinib, darsga qo‘sishimcha ma’lumotlar kiritish mumkin. O‘quvchilarga kartochkalarda yozilgan topishmoqlardan tashqari, yana qanday topishmoqlarni bilishlari haqida savollar berish maqsadga muvofiq. Masalan: Darslikdagi:

Dum-dumaloq bo‘yi bor,

Palovda obro‘yi bor.

Javobi- (behi).

Xuddi shu topishmoqning boshqa ko‘rinishini o‘qituvchi misol tariqasida aytishi mumkin:

Yerto‘laga ossa bo‘lar,

Palovga bossa bo‘lar ko‘rinishida.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarining ijodiy faoliyatini tashkil etish uchun turli shart-sharoitlarlarni yaratish muhim ahamiyat kasb tadi. Buning uchun ta’lim talablarini aniqlash va shu talablar asosida uning ustuvor qo‘nalishlarini izlanuvchi ta’lim, muammoli vaziyatlar yaratish va ta’limga texnologik yondashuv asosida tashkil etilishi o‘quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil etishning samaradorligiga zamin tayyorlaydi.

### **Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa**

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativlikni rivojlantirishning motivatsion-emotsional, kognitiv-faoliyatga doir, kreativ komponentlari har biri bo‘yicha baholash mezonlari ishlab chiqildi. Motivatsion-emotsional komponent “Uylar” metodikasining adaptiv variantini ishlab chiqish orqali tashxis etildi. Mezon sifatida qiziqish, faoliyatga emotsional-qadriyatli munosabat belgilandi. Kognitiv-faoliyatga doir komponentga doir fikrning tezligi, obrazlarning “ishlab chiqilganligi” mezonlarini tekshirish uchun Ye.Torrensning noverbal batareya metodikasidan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari o‘qituvchilarni kreativ faoliyatni tashkil etishga tayyorlashda quyidagi texnologik bosqichlarga asoslanish lozimligini ko‘rsatdi: motivatsiyani faollashtirish; ijodiy muhitni yaratish; ijodiy tavsifdagi o‘quv-kasbiy vazifalarni qo‘llashda tabaqalashtirilgan yonda-shuvga asoslanish; refleksiya; texnik va metodik ta’minotni yaratish; tayyorloving barcha bosqichlarida kreativ salohiyatni rivojlantirishning o‘ziga xosliklarini hisobga olish.

### **III BOB. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIMIY O‘YINLARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASINING SAMARADORLIGI**

#### **3.1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda ta’limiy o‘yinlardan foydalanish texnologiyasini takomillashtirishga yo‘naltirilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi**

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ faoliyatni tashkil etish ularning mamlakat ijtimoiy muammolarini to‘g‘ri baholay olishlari bilimlarni chuqur va mustahkam o‘zlashtirishlari, erkin va mustaqil kreativ fikr yuritishlariga yo‘lladi. Tadqiqotlarimiz mobaynida o‘quvchilarda kreativ faoliyatining yuqori darajasi uni muntazam ravishda mustaqil faoliyatga jalb qilish orqali rivojlantirildi. Bu o‘quvchi tomonidan maxsus turdagи o‘quv topshiriqlari – mustaqil ishlarni bajarish, shu jumladan, kompyuterli ishbop o‘yinlari, darsliklar va boshqa adabiyotlar natijasida amalga oshdi.

Mazkur tadqiqot ishining birinchi va ikkinchi boblarida boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar kreativ faoliyatini tashkil etishning nazariy-uslubiy jihatlari, hamda bu borada tarixiy tajribalar, pedagog-psixologlarning ilmiy qarashlarini yoritishga harakat qilindi. Shu bilan birgalikda tadqiq qilinayotgan masala doirasida innovatsion usullar tavsifi, boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar kreativ faoliyatini rivojlantirishning o‘ziga xos

xususiyatlari va imkoniyatlari, hozirgi paytda foydalanilayotgan dastur va darsliklarning tahliliy natijalari, hamda uning amaliyotdagi maktablar ahvoli, ilg'or pedagogik tajribalarining o'r ganilishi masalalari ko'rib chiqildi. Bu esa maktab o'quvchilarida kreativ faoliyatni rivojlantirishda maxsus pedagogik tizim yaratilishini ilmiy metodik jihatdan asoslashga imkoniyat berdi.

Ushbu bobda biz kichik maktab yoshdag'i o'quvchilarda kreativ faoliyatni tashkil etish metodlaridan foydalanish tizimini bayon qilamiz. Mazkur bobda dastlab eksperimental o'qitish mazmuninig tashkiliy masalalari o'z aksini topgan Tajriba-sinov natijalari uning ko'p qirraliligi, o'quvchilar sonini yetarli darajadagi o'lchami va o'rgatuvchi-nazoratli topshiriqlar majmuining xilma-xilligi bilan belgilanadi.

Eksperimentlarning mazmuni, shakl va yo'llarini optimal holda loyihalash uchun yoxud belgilangan vazifalar ichida ta'limiy-tarbiyaviy maqsadga erishish uchun biz o'quv elementlari mohiyatini o'quvchilarga uzatish yo'llarini aniqlashga kirishdik. Buning uchun tajribada qatnashayotgan o'quvchilarning kreativ faoliyatining rivojlanganlik darajasini, bilim olishga intilishi doirasida aniqlashga harakat qildik.

Boshlang'ich sinflarda kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishni amaliyotdagi holatini o'rganish.

1. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining **kreativ qibiliyatlarini rivojlantirish** haqidagi bilim, malaka va ko'nikmalarni aniqladilar.
2. Boshlang'ich sinflarda o'tilayotgan darslarini kuzatish orqali muammoli o'qitish texnologiyalaridan foydalanishning amaliyotdagi holatini o'rganish.

3. O'qituvchilarning dars ishlanmalari bilan tanishish, muammoli vaziyatlarni yaratish va muammoni tadbiq etilishining tahlil qiladi.

4. O'quvchilarning muammoli vaziyatlatni yecha olish (guruh bo'lib) malaka va ko'nikmalariga qay darajada ega yekanliklarini kuzatish, tahlil qilish.

O'rganish jarayonida darsni loyihalashda o'quv maqsadlarning belgilanishi, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini qay yo'sinda tashkil etilishi va darslarda pedagogika texnologiyalardan, muammoli ta'lim metodlaridan foydalanishga e'tibor qaratganligi tahlil etildi.

O'quvchilarning o'zaro birgalikdagi o'quv topshiriqlarini bajarish malaka va ko'nikmalarining shakllanganlik darajasi, guruhda ishslash qoidalariga rioya etishlari kuzatiladi va o'zlashtirish darajalari sinovdan o'tkazildi.

Ma'lumki, har qanday fan o'ziga tegishli voqeа va hodisalarni bosqichma-bosqich o'rgangan holda rivojlanib boradi.

Maktab o'quvchilarida kreativ faoliyatni tashkil etishning pedagogik mexanizmlarini, vositalarini aniqlash, o'quv jarayonini tashkil etish hamda mazmunini boyitish bozor iqtisodiyoti sharoitida avloddan kreativ qobiliyatini kamol toptirish bilan aloqada amalga oshiriladi.

Kreativ natijalarini baholashning o'z me'yori, qoidasi va me'zonlari mavjud. Kreativ faoliyatini rivojlantirishda tuzilish asosi (maqsad, tamoyil, mazmun va hokazolar)da o'quvchiga "bilim berish" dagi har qanday ta'lim turi tizimi bilan o'xshashdir. Biroq o'quvchilarning kreativ xususiyatiga ega bo'lgan qismi belgilangan bilimlar hajmidan o'zib ketishi mumkin.

O‘quvchilarda ijodkor faoliyatini tashkil etish hamda ular tomonidan an’anaviy ta’lim me’yorlarini o‘zlashtirishiga yordam beradigan qoidalar quyidagilardir:

1. O‘quvchining maqsadga qaratilgan qobiliyatining rivojlanish darajasi nazorat va baholashga dahldor bo‘lgan majburiy standartlarga kiritildi. O‘quvchilarning individual maqsadga yo‘naltirilganligi hamda o‘rganilayotgan sohadagi ularning tegishli faoliyati umumiy hajmning 20 % dan ortig‘ini tashkil etdi.

2. O‘quvchining o‘qituvchi tomonidan rejalashtiriladigan va nazorat qilinadigan faoliyatining majburiy turiga: o‘quvchilar tomonidan faoliyatning kreativ mahsuldorligini yaratishga shart-sharoitini ta’minlaydigan- kreativ bilish jarayonini ta’minlaydigan- bilishga doir; o‘quvchining oldingi ikkita kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan ilmiy- tashkiliy turlari kiradi.

3. O‘quvchilarning kreativ faoliyati va unga qo‘yiladigan maqbul talablar quyidagilar hisoblanadi:

a) fundamental ta’limiy obyektlar o‘quvchi kreativ faoliyatining obyekti bo‘ldi;

b) o‘quvchining shaxsiy ijodining hajmi umumiy o‘quv jarayonida 20-25 foizni tashkil etdi.

v) Umumta’lim jarayonidagi mahsuldor va reproduktiv faoliyat nisbati o‘quvchining rivojlanish darajasiga, o‘qituvchi va maktabning strategiyasi va ta’lim maqsadlariga qarab belgilanadi, biroq o‘quvchi mahsulotining hajmi uning individual dasturi bo‘yicha ta’lim faoliyati hajmi kam bo‘lmasligi kerak.

4. Fanlar bo‘yicha o‘quv materialini saralash quyidagi tarzda bajariladi: umumiy fanlarga oid ta’lim obyektidan ajratilgan obyeklardir.

5. O‘quvchining ichki ta’lim faoliyati va mahsuloti unga taqdim etilgan tashqi standartdan o‘zib ketadi. O‘quvchilar erishgan natijalar jamoa bo‘lib muhokama qilinadi, undan keyin tashqi madaniy-tarixiy o‘xshashliklar bilan qiyoslanadi.

6. Ta’lim standartlariga o‘quvchilarning ta’lim mahsulorligi nazarda tutilgan madaniy tarixiy o‘xshashliklar kiritiladi. Haqiqiy fundamental ta’limiy obyektlar hamda ular bilan bog‘langan ideal konstruksiyalardan iborat.

O‘quv jarayonining tuzilishi qanday natijalar va qanday shaklda nazorat qilinishiga bog‘liq. Ma’lumki, kreativ faoliyatning natijalari ikki tomonlama xarakterga ega tashqi va ichki shuning uchun ham o‘qituvchilarning ta’limda erishgan yutuqlari hamda ularning ichki sifati nazorat predmeti hisoblanadi. Ta’lim shaxsning asosiy xususiyati sifati birinchi navbatda uning ichki rivojlanish natijasi bilan aniqlanadi.

Biroq, vaziyatlari yondashuv ya’ni o‘quvchilarni maxsus tashkil etilgan yoki tabiiy ta’lim vaziyatlardan foydalanish yordamida diagnostika qilish samaraliroqdir. Bunday hollarda tashxis qiluvchilar rolini taklif etilgan mutaxassis ekspertlar qanchalik bajarsa, amaliyotchi pedagoglar ham shunchalik bajaradilar, chunki ular subyektiv tajribalariga tayanadilar. Ta’lim natijalarining diagnostikasi, jumladan, o‘quvchi qobiliyatining rivojlanish darajasini aniqlash o‘qituvchining o‘quvchida hosil bo‘layotgan subyektiv “his etishi” yo‘li bilan aniqlandi.

O‘quvchilarning kreativ faoliyatini tashkil etish darajasining diagnostika qilish vazifalariga:

- 1) ta’lim subyekti ishtirok etadigan diagnostik ta’lim jarayonlari uchun sharoit tayyorlash;
- 2) o‘quvchilarning ichki va tashqi olamidagi ta’limiy o‘zgarishlarni aniqlash;
- 3) qo‘yilgan maqsadlarning rejalashtirilgan davrda olingan natijalar bilan o‘zaro nisbatini aniqlash.

O‘quvchilarning ta’lim mahsuldorligini tahlil qilish va baholash usullari ularning kreativ faoliyatini nazorat qilish metodi bo‘ladi. Mazkur mahsulotning turi va xarakteri, shuningdek pedagogning maqsadli ta’limiy ko‘rsatmalarini bunday tahlil elementlarini aniqlashga yordam beradi. Masalan, o‘quvchilar ijodkorligini rivojlantirish zarurati ular ishining tahlil etishning quyidagi yo‘nalishlarini yaratishga olib keladi: Ijod sohasi, ijod darajasi, mustaqillik darajasi, boshqa o‘quvchilarning ishlaridan farqlanish darajasi o‘zining oldingi ishlaridan farqlanish darajasi.

O‘quvchi ta’lim mahsuldorligining har bir elementini son yoki sifat, jihatdan ball bilan yoki og‘zaki baholashi mumkin. Ta’limiy taqriz, tavsif og‘zaki shaklga qarab chiqiladi. Uch-besh, o‘n balli shkalalar o‘quvchilar kreativ natijalarini son jihatdan baholash imkonini beradi. O‘quvchilar bilimi sifati quyidagi usullar bilan baholanadi:

- a) javobdagisi ijod elementlarining soni bo‘yicha;
- b) javob elementlarining farqi bo‘yicha;
- v) javobning o‘quvchining o‘zi yoki sinfdoshining ishiga nisbatan yangiligi bo‘yicha;
- g) yaratilgan obraz, ramz yoki ifodaning lo‘nda va ixchamligi bo‘yicha; javob uchun foydalanilgan imkoniyatlarning ko‘pqirraligi bo‘yicha;

e) olingan natijalarning amaliy ahamiyati foydalanishi bo'yicha;

O'quvchilardagi shaxslik sifatlarining rivojlanish darajasi ular diagnostikasining dastlabki va oxiridagi natijalarini taqqoslash asosida aniqlandi. Kuzatish, testlar, o'quvchilar bilimi mahsuldorligini tahlil etish metodikasi yordamida har bir o'qituvchi uch turkumda kreativ sifat, bilishga doir va faoliyatni tashkil etish kabi guruhlashtirilgan sifatlarining rivojlanish darajasini belgilaydi. Har bir o'quvchining shaxslik sifatlarini rivojlanish darajasini baholash uchun quyidagilardan foydalaniladi:

a) o'quvchiga yozma ta'limiy tavsifnoma;

b) uning ta'limiy erishgan natijalari;

v) kreativlikda kuzatiladigan pedagogik konsiliumlar, testlar va boshqa materiallar natijalari;

g) fikrlarni ifodalovchi anketa va o'quvchilarning o'z-o'zini baholashi.

O'quvchining sifat rivojlanishining yakuniy bahosi uch daraja bo'yicha belgilanadi: O'quv yili davomida o'quvchining shaxslik sifatlari ijobjiy o'zgargan taqdirda "yuqori" deb baholandi, bu uning eng ko'p imkoniyatga egaligi namoyon bo'ldi; agar o'quvchining imkoniyati qayta bo'lgan-u, ammo o'zgarish yuz berganda "o'rta", o'zgarish sezilmagan taqdirda "past" deb baholandi. Olingan natijalarni tabaqalashtirish maqsadida besh darajali shkalladan foydalani samaralidir, unga "o'rtadan yuqori", "o'rtadan past" kabi darajalar ham qo'shiladi. Har xil o'qituvchilar tomonidan aynan bir xil o'quvchilarga oid olingan ma'lumotlar o'rganilganda bu ma'lumotlar ta'lim jarayonining ham yaxlit, ham har bir o'quvchi bo'yicha samaradorligi to'g'risida mulohaza yuritish imkonini berdi. (3.1.1-jadval)

### 3.1.1-jadval

#### Ilmiy-tashkiliy faoliyatga doir sifatlarining namoyon bo'lishi (foiz hisobida)

№	Sifatlar	Tajriba avvalida			Tajriba so'nggida		
		Yuqori	O'rta	Past	Yuqori	O'rta	Past
1	Maqsadga yo'nalganligi	21	32	36	40	30	19
2	Maqsadga intiluvchanlik	20	25	44	42	34	13
3	Rejalashtirish	22	28	29	39	31	19
4	Me'yoriy bilish	18	27	44	38	28	23
5	Ish qobiliyati	25	35	29	41	36	12
6	Fikrlash darajasi	24	31	34	38	33	18
7	O'z-o'zini baholash	23	34	32	43	37	9

Kreativ faoliyatida ta'lif o'quvchilarining joriy ta'lif natijasi diagnostikasini nazarda tutadi. O'quvchilarning ta'lif natijalarini baholash mezonlarini maqsadga yo'nalganlik, rejalashtirish voqeа-hodisalarini his etish, tajribaviy qobiliyati, savollarni tahriflash, javoblarni izlash, fikr yuritishlari belgilandi.

1. Tadqiqot maqsadini ta'riflash (maqsadga qaratilganlik qobiliyati):
  - reproduktiv maqsad – 1 ball;
  - bilish maqsadi – 2 ball;
  - tadqiqotchilik maqsadi- 3- ball;
  - maqsadning aniqligi, uni tekshirish imkoniyati qo'shimcha – 1 ball;
  - maqsadning ahamiyati – qo'shimcha 1-2 ball;

2. Faoliyatni rejalarashtirish qobiliyati :

- reja yo‘q-0 ball;
- reja sodda, 1-2 banddan iborat – 2 ball;
- reja natijalarga zarar yetkazmagan holda tadqiqot davomita tuzatildi – 3 ball ;

3. Obyekt haqida misollar izlash (obyektni his etish qobiliyati):

- 0-3 ta misol keltirgan – 0 ball;
- 4-7 misol keltirgan – 2 ball;
- 8 tadan ortiq misol yozilgan – 3 ball;
- alohida ahamiyatli misollar har bitta misolga 1 balldan;

4. Tajriba o‘tkazish qobiliyati:

- rasm va misol bilan 1 ta tajriba – 1 balldan ;
- 2 ta tajriba – 2 ball ;
- yangi olingen har bir manba uchun – 1 balldan ;

5. Savol va muammolarni ta’riflash (savollar berish, asosiy muammoni anglash qobiliyati);

- 1-3 savol – 1 ball;
- 4-7 savol – 2 ball ;
- 8 dan ortiq savol – 3 ball ;
- o‘ziga xos savollar – qo‘srimcha 1 – balldan;
- savol tadqiqotning maqsadini rivojlantiradi qo‘srimcha ravishda yana – 2 ball;
- savolda ixcham muammo yoki ziddiyatlardan iborat- yana qo‘srimcha 3- ball;

6. Javoblar, farazlar, taxminlar (oldindan aytish, natijalarni modellashtirish qobiliyati);

- 1 ta taxmin – 1 ball;
- mantiqiy ichki o‘z taxmini – 2 ball;
- yangi asoslangan faraz – 3 ball ;

## 7. Fikrlash qobiliyati.

Haqiqiy amalga oshirilgan faoliyatga dahldor fikrlashga doir mulohazalar – 1ball;

- faoliyat usullar va olingan natijalarni anglab olish- har bir usul va natija uchun 1- ball;
- tadqiqotning qo‘yilgan maqsadi bilan xulosalar bog‘langan – 3 ball;

Tekshirilayotgan kreativ faoliyati har birining rivojlanish darajasini baholash uchun 1-2 ball, uning rivojlanish darajasining pastligi; 3-5 ball-o‘rtachaligi; 6- balldan ortig‘i - yuqori darajani ifodalaydi.

Kreativ faoliyati subyekti nafaqat o‘quvchilar, balki o‘qituvchilar, shuningdek ta’lim muassasalari ham bo‘lishi mumkin. Ushbu guruhlarning har bir subhektining faoliyati ularning ta’lim natijalarining tahlil qilish asosida tekshiriladi. Dignostikaning asosiy qismlari samaradorlik jihatlari va tahlil usullari o‘rtasidagi bog‘liqlik quyidagi jadvalda berilgan (3.1.2-, 3.1.3-jadvallarga qarang).

### **3.1.2- jadval**

#### **Boshlang‘ich ta’limda kreativ faoliyatni tashkil etishning diagnostik apparati**

<b>Kreativ faoliyat tarkibi</b>	<b>Ta’lim turlari</b>	<b>Ta’lim usuli, shakli</b>
Kreativ imkoniyati	Darsda kreativ faoliyatda kreativ yutuq	Kreativ ish mazmunini tahlil qilish va baholash

Davlat ta'lim standartlari	Nazorat ishlari, testlar, sinov, imtihonlari	Elementlar bo'yicha tahlil va baholash
O'quvchilarning shaxslik sifatlari	O'quvchilarning yozma ishlari va o'z-o'zini baholashi, o'qituvchining ta'limiy tavsifi	Shaxs sifatlari rivojlanish darajasini o'qituvchi tomonidan diagnostika qilish va baholash
Individual ta'lim loyihasi	O'quvchilarning individual ta'lim dasturi va yozma ishlari, o'qituvchining ta'limiy tavsifi	Dastur bilan natija muvofiqligining tahlili o'quvchilar ta'lim natijalarining farqli jihatlari

### 3.1.3-jadval

#### Boshlang'ich ta'limda kreativ faoliyatni boshqarish

Boshlang'ich ta'limda kreativ faoliyat ko'rinishlari	Ta'lim turlari	Tahlil shakli va usullari
Kreativ imkoniyati, o'qituvchining kreativ sifatlari	Ishlab chiqilgan ta'lim dasturi, anketalar, yozma ishlari	Kreativ ishlanmalarning tahlil, Modellashtiriladigan mashg'ulotlar va kreativ ishlari tahlili
Pedagogik dunyoqarash	Ilmiy- metodik ishlari, seminarlarda chiqishlar	Tashkiliy faoliyat seminarlarida ishtirop etish,konferentsiyalarda chiqishlar
Shaxsnинг tashkiliy faoliyat sifatlari	O'quvchilar bilan kreativ mashg'ulotlari turi o'z loyihalarini pedagogik seminarlarda himoya qilish	Mashg'ulotlar, refleksiyaning vedio nusxalari va seminarlarda ta'lim faoliyatining muhokamasi

Innovatsion va tajriba-sinov faoliyati	Ishlab chiqilgan didaktik tizim, metodika va usul	Ishlab chiqilgan materiallar haqida tahlil va ekspert xulosasi
Ta'lim natijalarini nazorat qilish tizimini baholash	O'quvchilarning tavsifnomalari	Ta'lim turlari bo'yicha tahlil.

Ta'lim natijalarini tahlil qilish va turli xil ta'limi sohalari uchun yagona bo'lgan mezonlar bo'yicha amalga oshiriladi. Shkalalarning qo'llanilishi turli xil pedagogik sharoitlarda o'tkaziladigan ta'limning qiyosiy tahlilini tahminlaydi.

O'quvchilar kreativ ishlarini tahlili uchun shkala mezoni (har bir ko'rsatkich bo'yicha 10 balli shkalada baholanadi):

1. Kreativ ishning darajasi;
2. Ishning o'ziga xosligi;
3. Yangiligi;
4. Mahorat darajasi;
5. Ishning muallif uchun va boshqalar uchun ahamiyati;
6. Ishning qiyinligi;
7. Ishning jihozlanish sifati;

**O'qituvchining kreativ faoliyatini rivojlanish darajasini tahlili uchun shkala mezonlari:**

1. Yuqori daraja;
2. O'rtadan yuqori;
3. O'rta;
4. O'rtadan past;
5. Past

Kreativ faoliyati o‘quvchining rivojlanish darajasini nazarda tutadi. O‘quvchining ayrim sifatlarini rivojlanishini tahminlash va diagnostikalash uchun ularning darajasini belgilab olmoq zarur.

O‘quvchilar kreativ faoliyatlarini rivojlantirishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari, ta’lim jarayonida pedagogning o‘rni va roli, shuningdek, o‘qitishning eng samarali uslublari va ta’lim vositalari shaxsning to‘la-to‘kis rivojlanishida juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘yinlar, ekskursiyalar, gimnastika, sport, jismoniy mehnat, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning rivojlanishi muhim jihatlarbo‘lsa ham, lekin uni aqlan (intellektual) shakllantirishda asosiy faoliyat – o‘quv mehnatidir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bu davrda intellektual rivojlanishini amaliy obrazli fikrlashdan mantiqiy – mavhum fikrlashga o‘ta boshlaydi. Ularning buyumlarni taqqoslashga, o‘xhash va farqli tomonlarini bilishga, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini anglashga aqli yeta boshlaydi. Ammo o‘quvchilar mantiqiy xulosa chiqarishga qiynaladilar, tahriflarni yodlab olishga harakat qiladilar. Shuning uchun boshlang‘ich ta’limda ko‘rgazma-lilik katta ahamiyatga ega. Shunga ko‘ra, o‘qituvchi o‘quvchining voqeahodisalarini bevosita idrok qilishdan uning qonuniyatlarini, o‘zaro bog‘lanishlarini tushunib olishga va bilishga qaratadi, tajribalar o‘tkazadi. Bu borada matematika va tabiatshunoslikka oid fanlar qiziqarli. Bu yoshda bolalar badiiy asarlar o‘qishni sevadilar, ayniqsa sarguzasht badiiy asarlar bilan bir qatorda teatr, kino, televedenie ular hayotida muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga ijtimoiy foydali mehnat bilan shug‘ullanar ekan, mehnat malakalari va ko‘nikmalarini egallab olishga harakat qiladilar. Lekin ular o‘yinqaroq va serharakatdirlar. Shuning uchun ham

o‘qituvchi darslarda bolalarga mustaqillik berish bilan birga bolalarni to‘g‘ri yo‘naltirishi zarur.

Bu ishni amalga oshirishda biz tahlillarga tayangan holda bir necha pog‘onali o‘qitish tizimiga asoslandik, ya’ni:

- o‘quvchilarning bilimlarini oshirishga psixologik tayyorgarligi;
- taqdim qilinayotgan o‘quv materialining idrok qilinishi;
- innovatsion usullar orqali o‘zlashtirish darajasi;
- egallangan bilimlarni kreativ qo‘llay olishi va boshqalar.

Jamiyat taraqqiyotining zamонавиу bosqichi inson faoliyatining barcha sohalarida fan-texnika yutuqlaridan keng foydalanishga asoslangan tub iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar bilan tavsiflanadi. SHu munosabat bilan mutaxassislarining ilmiy va madaniy darajasi, kasbiy mahorati, fan va texnikaning eng yangi yutuqlarini mustaqil egallay oladigan ijodkor shaxsni rivojlantirishga yuqori talablar qo‘yilmokda.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kreativ faoliyatini tashkil etishning zarur va hal qiluvchi sharti o‘quvchining pedagogik faoliyatning barcha sohalariga: o‘quvchilar o‘quv faoliyati va uni metodik tahminlash, asl tarbiyaviy tafsir va uni tashkil etish, tadqiqotchilik-kreativ ish va uning metodikasini egallahsga har tomonlama yo‘nalganligi sanaladi. Taklif qilinayotgan materialda o‘qituvchilarda pedagogik ko‘nikma va malaka, pedagogik ong va shaxsnинг kasbiy ahamiyatli sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish; kreativ tafakkurni, kasbiy faoliyatning individual uslubi, unga tadqiqotchilik va kreativ yondashuvni shakllantirish bo‘yicha ish tajribasi tahlili bayon etiladi. Ko‘rsatilgan muammolarni hal qilishda pedagogika fani jiddiy o‘rin tutadi.

## **1-bosqichda o‘tkazilgan suhbat va test so‘rovlari natijalari**

Sinflar	Yuqori daraja		O'rta daraja		Past daraja	
	"A" sinf	"B" sinf	"A"sinf	"B" sinf	A"sinf	"B"sinf
1-sinflarda	5	5	11	12	17	18
% hisobida	15,2	14,3	33,3	34,2	51,5	51,5
2sinflarda	7	8	14	15	16	18
% hisobida	18,9	19,5	37,8	36,5	43,3	44
3-sinflarda	6	5	12	13	19	17
% hisobida	16,2	14,3	32,4	37,1	51,4	48,6
4-sinflarda	5	3	12	12	16	19
% hisobida	15,3	9	36,4	35,3	48,3	55,7

O'tkazilgan tajriba natijalaridan ko'rinish turibdiki, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi talab darajasida emas. Buning asosiy sababi esa o'qituvchilarning o'quv predmetlarini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasidan samarali foydalanish malaka va ko'nikmalariga ega emasliklarida deb hisoblash mumkin.

Kuzatilgan darslarning deyarli ko'pchiligi an'anaviy turda bo'lib, savol-javob, mashq bajarish, suhbat, hikoya metodlaridan, tarqatma materiallardan foydalanildi. Lekin bu darslarda o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda muammoli ta'lim vositalariga e'tibor qaratilmadi.

Darslarda faqat o‘qituvchilarning fikri bilan kelishgan holda ish olib borildi. O‘quvchilarning faolligi ko‘zga tashlanmadi. O‘qituvchilarning ijodkorlik darajasi talab darajasida emas. Ular darsni faqat bir qolipda o‘tishga o‘rganib qolganlar. Natijalardan ko‘rinib turibdiki, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashlari uchun qulay sharoit yaratilmagan.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qituvchining vazifasi bilim berish bilan bir qatorda o‘quvchilarning mustaqil tafakkur yurita olish qobiliyatini o‘stirishdan ham iboratdir.

Maktablarda o‘qituvchilarning darslarini va tarbiyaviy ish tajribalarini o‘rganish, boshlang‘ich sinfni tamomlayotgan o‘quvchilarning darslik materiallari ustida ishlay olish iqtidorlarini, mustaqil ishlarni bajara olish darajalarini kuzatish natijasida shu xulosaga keldikki, o‘qituvchilar dars jarayonida o‘quvchilarning ijodiy ishlariga keng o‘rin bermaydilar, muammoli ta’limning imkoniyatlaridan foydalanmaydilar, mavzuga oid muammoli vaziyatlar va topshiriqlar ustida o‘quvchilarning mustaqil aqliy faoliyati etarli darajada uyushtirilmaydi.

Natijada boshlang‘ich sinf o‘quvchisining mustaqil fikrlash darajasi talablarga muvofiq kelmaydi, ularda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish ko‘nikmalari etarli emas. Bu, bir tomondan, o‘quvchining bundan so‘ng o‘z bilimini oshirish ustida qunt bilan ishlashiga to‘sqinlik qilsa, ikkinchi tomondan, yuqori sinflarda ham o‘zlashtirish darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

### **3.2. Tajriba-sinov ishlarining statistik tahlili**

#### **II – bosqich. Shakllantiruvchi tajriba.**

Tajriba maqsadi:

Boshlang‘ich sinf o’qituvchilariga muammoli o’qitish texnologiyasiga oid bilimlarni berish, darslarda muammoli o’qitish texnologiyasi qoidalari, muammoli vaziyatlar yaratish tartibi bilan tanishtirish.

Tajribada hal etiladigan asosiy vazifa:

1. Boshlang‘ich sinf o’qituvchilariga muammoli ta’lim texnologiyasi bo’yicha ma’ruza tashkil etish.
2. Muammoli vaziyatlar yaratish bo’yicha treninglar o’tkazish.
3. Darslarni ilg’or texnologiyalar asosida loyihalashtirish va texnologik harita tuzish bo’yicha amaliy mashg’ulotlar o’tkazish.
4. Interaktiv metodlar va grafikli organayzerlar bo’yicha o’qituvchilarni guruh bilan ishlashga o’rgatish.
5. Murakkab muammoli savollar ishlab chiqishga o’rgatish.
6. Muammoli vaziyatlar asosida loyihalangan dars ishlanmarini o’qituvchilarga taqdim etish va darslarni kuzatish.

#### **Tajribaning borishi:**

Tajriba jarayonida quyidagi reja bo’yicha o’qituvchilar uchun ilmiy-uslubiy konsultatsiyalarni tashkil etildi.

No	Muammoli o’qitish bo’yicha olib borilgan ishlar mazmuni	Ma’ruza	Trening	Mustaqil ish
1.	Muammoli ta’lim texnologiyasining vujudga kelishi	Q		

2	Muammoli ta'lim metodlari tizimi	Q	Q	Q
3	Muammoli vaziyatlar tashkil qilish qoidalari	Q	Q	
4	Muammoning yechimini izlash yo'llari	Q	Q	
5	Muammoli dars turlari va strukturasi	Q		Q
6	Dars loyihasini tuzish		Q	Q
7	Texnologik xarita tuzish		Q	Q
8	Muammoli vaziyatlarni yechish uchun interaktiv metod va grafikli organayzerlarni tanlash		Q	Q

Tadqiqot natijalarini o‘rganish boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning kreativ faoliyatini tashkil etish yuqori samaradorlikka erishganligini ko‘rsatdi. Agar tajriba boshida tajribada qatnashayotgan o‘quvchilarning deyarli ko‘pligida ijodkorlik faoliyati darajasi past ekanligi aniqlangan bo‘lsa, ijodkorlik va faollik ayrim o‘quvchilarda umuman rivojlanmagan bo‘lsa, tadqiqot yakunida bu ko‘rsatkichlar yuqori ekanligining guvohi bo‘ldik.

O‘quvchilarning kreativ faoliyatini tashkil etish jarayonidan kelib chiqqan holda bu faoliyatning samaradorligini oshiruvchi quyidagi amaliy tamoyillar aniqlandi va joriy qilindi.

- mustaqil ishlar asosida umumiy bilim va malakalar o‘zlashtirildi va uning samaradorligi tahminlandi;

- topshiriqlar majmui Milliy o'quv dasturida ko'zda tutilgan barcha materiallar birma-bir barcha fanlar mavzulari bo'yicha aniqlandi va uzviyligi nazorat qilindi.

O'quvchilar tomonidan bajarilgan topshiriqlar mezon va ko'rsatmalari nazariy- uslubiy jihatdan ishlab chiqilgan bo'lib,mazmunan tizimlilik kasb etdi.

Mazkur bobning 1-faslida o'quvchilarda kreativ faoliyatni tashkil etish tizimining asosiy pog'onalarini o'quvchilarga taqdim qilingan topshiriqlar ularda nafaqat o'quv jarayonidagi motivlarni rivojlantirishga, balki ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishga ham o'z tahsirini ko'rsatdi.

### **III - bosqich. Solishtiruvchi bosqich.**

Tajriba maqsadi:

O'qituvchilarning boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ qobiliyatlarini o'yinlar orqali rivojlantirishni tadbiq etishlarini ta'minlash va o'quvchilarning mustaqil fikrlash darajasi samaradorligini aniqlash va tahlil qilish.

Asosiy vazifalar:

1. Tajriba o'tkazayotgan sinflarda muammoli ta'lim texnologiyalariga asoslangan kreativ darslarni rejalashtirish va o'tkazish.
2. Muammoli ta'lim texnologiyalariga asoslanib o'tkazilayotgan darslardagi o'qituvchi va o'quvchilar kreativligini kuzatish, tahlil etish.
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilar bilan kreativ darslar bo'yicha I - bosqichda o'tkazilgan so'rov nomasi asosida qayta ishslash.
4. O'quvchilarning kreativ fikrlash darajalarini aniqlovchi nazorat o'tkazish.

5. Natijalarga asoslanib o`quvchilarni kreativ qobiliyatlarini rivojlan-tirish bo'yicha o'tilgan darslarni avvalgi kuzatilgan darslarga solishtirish.

6. I va II bosqich natijalarini o'zaro taqqoslash.

Tajribaning borishi:

O'tkazilgan barcha darslar kuzatildi va tahlil etildi, o'quvchilarning egallagan bilimlari anashi mavzular yuzasidan olingan test savollari asosida sinovdan o'tkazildi. O'quvchilarning o'zlashtirish natijalari matematik-statistik yo'l bilan umumlashtirildi.

## 2-bosqichda o'tkazilgan suhbat natijalari

Sinflar	Yuqori daraja		O'rta daraja		Past daraja	
	tajriba sinfi	nazorat sinfi	tajriba sinfi	nazorat sinfi	tajriba sinfi	azorat sinfi
1-sinflarda	17	5	10	14	6	13
% hisobida	51,5	20,6	30,3	41,2	18,2	38,2
2-sinflarda	18	9	12	12	7	14
% hisobida	48,6	25,7	32,4	34,3	19	40
3-sinflarda	17	8	13	17	7	16
% hisobida	46	19,5	35	41,5	19	39
4-sinflarda	18	5	9	12	6	18
% hisobida	54,5	14,3	27,3	34,3	18,2	51,4

1-4-sinf o'quvchilari bilan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natija-laridan ko'rinish turibdiki, tajriba sinflari o'quvchilarining mustaqil fikrlash

tarzida birmuncha rivojlanish kuzatildi. Nazorat sinflaridagi o‘quvchilar mustaqil fikrlash darajalarida esa o‘sish, deyarli ko‘zga tashlanmaydi.

Natijalar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilar bilan o‘tkazilgan ta’lim jarayonida qo‘llanilgan muammoli ta’lim vositalari ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatishda o‘z samarasini bergen. Ya’ni tajriba sinflari o‘quvchilarini mustaqil fikrlash darajalari va nazorat sinflari o‘quvchilarini mustaqil fikrlash darajalari o‘rtasidagi farq sezilarli darajada o‘sgan.

Bu natijalar esa tadqiqotimiz davomida ishlab chiqilgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga o‘rgatish usullari samarador ekanligidan dalolat beradi.

Tadqiqot natijalaridan shuni ko‘rish mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilar bilan olib borilgan darslar jarayoniga tadbiq etilgan innovations texnologiyalar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash darajasiga va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Demak o‘quvchilarning mustaqil fikrlashining rivojlanishi shaxs ijodkorligi, hamda tafakkur darajalari bilan bog‘liqlikda ekanligi ma’lum bo’ldi. Shuningdek, ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan muammoli usullar va vositalardan foydalanish talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish omillari sifatida namoyon bo’ladi.

O‘quvchining shaxslik sifatlari, ijodkorlik faoliyati turlari va ularning ta’limiy samaradorligi o‘rtasida muayyan muvofiqliklar mavjud. Masalan ta’lim natijalarining tadqiqot turi uchun bog‘liqlik tomonlari quyidagicha namoyon bo‘ladi:

1.Shaxslik sifatlari – muammoni yechish uchun fikr yurita bilish;

2.Faoliyat turlari – muammoni hal qilish taxminlarini olg‘a surish va muhokama qilish;

3.Ta’lim samaradorligi: “agar ... o‘sha” turi bo‘yicha yozma shaklda yozilgan taxminlar.

Bunday tizim ta’lim dasturini tuzish uchun mo‘ljal bo‘la oladi. O‘quvchilarning o‘zini-o‘zi va ta’lim natijalarini baholash vaqtiga bilan (hafta, chorak, yil oxirida) individual ta’lim dasturini hisobga olgan holda tashkil etiladigan izlanishlar va ular mehnatini baholash asosida amalga oshiriladi.

Biz tadqiqot davomida 1-4 sinf o‘quvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirganligi aniqlash maqsadida tizimli ravishda maxsus darslar o‘tkazdik. Tadqiqot bazasi etib Namangan viloyati Namangan shahridagi 5-13-umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflari belgilangan edi. Jami tajriba-sinovda 89 o‘quvchi qatnashdi.

O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlaridan aniqlandiki 1-4 sinf o‘quvchilarida ijodkorlik faoliyatini tashkil etish uchun quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

1. Bolaning individual xususiyatiga ehtiborni qaratish.
2. Ta’limda o‘qituvchi-o‘quvchilarni o‘ylashga, fikr yuritishga yo‘naltirish.
3. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikka erishish.
4. O‘quvchilarning qobiliyatlarini tashxislash, uni rivojlantirishga pedagogik vaziyatlar yaratish.
5. Turli-tuman interfaol metodlarni darslarda samarali tashkil etishiga erishish va boshqalar.

Tarbiya – kundalik jarayon, u inson o‘zini yetarlicha darajada katta deb his etguniga qadar yillab davom etishi mumkin. Shu sababli o‘qituvchi bu o‘rinda muhim rolg‘ bajaradi, zero o‘quvchi ongida bilimlar poydevorini barpo etadi.

Davr o‘zgaryapti, qarashlar o‘zgaryapti, stereotiplar o‘zgaryapti, mahnaviy ideallar o‘zgaryapti va h.k. biroq o‘qituvchi madaniyatli insonlar orasida hamisha e’tiborda bo‘lgan va hozir ham shunday.

Tajriba-sinov natijalardan kelib chiqib ta’kidlaymizki o‘qituvchining kasbiy-kreativ salohoyati – pedagogik takomillashuv asosi bo‘ladi.

Shaxsning kasbiy-kreativ salohiyatiga to‘xtalib, aytish mumkinki, u egallangan va mustaqil ishlangan maxsus bilim, ko‘nikma va malakalar, sifatlar, kasbiy tajriba va xulq normalari, o‘qituvchi kasbida muvaffaqiyat bilan ishlashni tahminlaydigan harakatga qodirlik bilan belgilanadi. Asosiysi, bu salohiyat mahoratli o‘qituvchi shaxsi o‘z oldida turgan vazifalarni hal qilishda namoyon etadigan kreativ tashabbus darajasi ham kiradi.

Yosh mutaxassisning rivojlanishining natijasi mahoratli o‘qituvchi o‘z-o‘zini kreativ realizatsiyalashi sanaladi. O‘qituvchi shaxsining tiklanish bosqichlari: o‘z-o‘zini belgilash, o‘z-o‘zini ifoda etish va o‘z-o‘zini realizatsiyalash farqlanadi.

### **Uchinchi bob bo‘yicha xulosa**

Ijodkorlik faoliyati uch asosiy yo‘nalishni o‘z ichiga oladi. Bular o‘quvchilarning biror bir haqiqatni mustaqil izlashi va kashf etishi bilan bog‘liq evristik va muammoli ta’limdir. Evristik ta’lim esa o‘quvchilarda ijodiy qobiliyatni shakllantirish va ilmiy asoslangan faoliyatni tashkil etish

bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Muammoli vaziyatlar yaratish orqali o‘quvchilarni mantiqiy, ilmiy, didaktik, ijodiy fikrlashga o‘rgatib borildi. Bu borada ta’lim jarayoniga texnologik yondashuv o‘z samarasini berdi. “Aqliy hujum”, “Klaster” jadvali tuzish, shehriy topishmoqlar asosida tashkil etilgan“O‘yla, izla, top” o‘yin-darslari bunga misol bo‘la oladi.

Ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda dialog darslar, munozaralar, bahs-suhbatlar, fantaziya, izlanish darslari, muammolarni hal etish darslari, ixtirochilik, modellashtirish, badiiy-texnik ijodkorlik, ramzlar ijod qilish, kashfiyotlar qilish, insholar yozish, solnomalar tuzish shular jumlasidandir. O‘quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil etish shakl va metodlari xilma-xil bo‘lib, anhanaviy dars shakllariga qaraganda ta’limga texnologik yondashuv asosida innovatsion metodlarni qo‘llash samarali kechadi.

Shu bilan birga o‘yinlar vositasida shaxsni emotsiyal - hissiy, intellektual hamda axloqiy rivojlanishida qulay imkoniyatlar mavjud bo‘lib, bular ishbop o‘yinlar, rolli o‘yinlar, didaktik o‘yinlar, kompyuterli o‘yinlar tarzida amalga oshadi. Tadqiqot davomida ular tarkibiga amalga oshirilgan intellektual-ijodiy o‘yinlar, ishbop o‘yinlar katta imkoniyatlarga ega ekanligini namoyon etdi.

Boshlang‘ich ta’limda ijodiy faoliyatni tashkil etishning eng qulay shakli o‘yinlar bo‘lib, bular ishbop o‘yinlar, didaktik o‘yinlar, rolli o‘yinlar hamda kompyuterli o‘yinlar, intellektual o‘yinlar bo‘lib, bular bir tomonidan muayyan nostandard vazifalar bilan bog‘liq holda haqiqiy faoliyat yuritsalar, ikkinchi tomonidan bu faoliyat mahsuliyatni his etgan holda vaziyatlardan chetga chiquvchi shartli xususiyat ham kasb etadilar.

## XULOSA

“Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kreativ qobiliyatlarini rivojlan-tirishda ta’limiy o‘yinlardan foydalanish texnologiyasi” mavzusidagi dissertatsiya bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda kreativlikka asoslangan mantiqiy tafakkurni shakllantirish ularning ichki mustaqilligiga e’tibor qaratish va bosqichma-bosqich rivojlantirib borish zarurligi haqidagi g‘oyaga tayanish lozim. Tadqiqot obyekti bilan bog‘liqlikda “boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativlikni rivojlantirish” deganda “o‘quvchilarni turli o‘quv topshiriqlarini bajarishi, vaziyatlarni hal etishda noodatiy yondashuvni tarkib toptirish, yangi g‘oya va nuqtai nazarlarni erkin ifoda etish, fikrning egiluvchanligi va tasavvurning boyllilagini tarkib toptirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon tushuniladi”, degan xulosaga kelindi.

2. Tahlil natijalari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativligini obyektiv o‘rganish uchun quyidagi tarkibiy qismlar mavjud bo‘lishi lozimligi belgilandi: kognitiv-kreativ (kreativ fikrlash va tasavvur), motivatsion-shaxsiy (bilishga ehtiyoj, mustaqillik va tanqidiylik), emotSIONAL (ekspressivlik) va faoliyatga doir (ijodiy faollik, qat’iylik va tirishqoqlik).

3. “San’at vositasida o‘quvchilarda kreativlikni rivojlantirish sirlari” dasturida o‘quvchilarda san’atga qiziqishni shakllantirishga imkon beruvchi didaktik o‘yinlar va mashqlar tizimi taqdim etildi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativlikni rivojlantirish san’at pedagogikasining maxsus metodlari orqali amalga oshirildi.

4. Tadqiqot natijalari o‘qituvchilarni kreativ faoliyatni tashkil etishga tayyorlashda quyidagi texnologik bosqichlarga asoslanish lozimligini ko‘rsatdi: motivatsiyani faollashtirish; ijodiy muhitni yaratish; ijodiy tavsifdagi o‘quv-kasbiy vazifalarni qo‘llashda tabaqa lashtirilgan yondashuvga asoslanish; refleksiya; texnik va metodik ta’minotni yaratish; tayyorloving barcha bosqichlarida kreativ salohiyatni rivojlantirishning o‘ziga xosliklarini hisobga olish.

### **TAVSIYALAR:**

1. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilarda kreativlikni rivojlantirishga oid nazariy-pedagogik bilimlar, ilmiy-amaliy tavsiyalar bilan qurollantirish maqsadida metodik qo‘llanma yaratish lozim.
2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativlikni rivojlantirishga xizmat qiladigan o‘quv materiallari va ta’limiy topshiriqlarni tanlash hamda yangi avlod darsliklarini yaratishda keng foydalanish maqsadga muvofiq.
3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativlikni rivojlantirishga doir ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish va adaptiv variantlarini ishlab chiqish zarur.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

### **I.Normativ-huquqiy hujatlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni O‘RQ-637-son 23.09.2020. // <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PF-6017-son 30.06.2020. // <https://lex.uz/ru/docs/-4880189>
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. // <https://lex.uz/docs/-3153714>
4. Mirziyoyev Sh. M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz”// O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majilis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqidan. 16.12.2016-yil
5. Mirziyoyev SH.M. Ilm-fan yutuqlari – taraqqiyotning muhim omili. // “Xalq so‘zi”, 2017, 31-dekabr
6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. // Ishonch. №1-2-3 (4443.) 2021йил 1-январь. –
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha

rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son farmoni. - Elektron resurs <https://lex.uz/docs/4312785>

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarda Xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha Milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari. 2022-yil 11-maydagi PF-134-son

## **II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar**

10. Abdullayeva Sh.A. Hamkorlik pedagogikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 178 bet.

11. Adizov B.R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. – Toshkent: Fan, 1997.-182-b.

12. Bobomurodova A.Y. Ona tili ta’limi jarayonida o‘yin-topishmoqlardan foydalanish: Ped. fan.nom. diss. Avtoref.- Toshkent., 1997.- 20 b.

13. Boltayeva Sh. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish. // Xalq ta’limi, 2004, № 3.-33-34 b.

14. Davletshin M.G. Zamoniaviy maktab o‘quvchisining psixologiyasi. – Toshkent., O‘zbekiston.- 30 b.

15. Dilova N.G‘. Boshlang‘ich ta’limda o‘zaro hamkorlik muhitini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(‘hD). ... diss. – Nukus, 2018. – 152 s.

16. Dubrovina I.V. Individualnoe osobennosti shkolnikov. –M.: Pedagogika, 1991.-277 s.

17. Zunnunov A., Maxkamov U. Didaktika. – Toshkent: Sharq, 2006. - 125c.
18. Ibragimov X. I., Abdullayeva Sh. A. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma.-T.: Fan, 2004.- 182 b.
19. Ikromova R., G‘ulomova X., Yuldosheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili. 4-sinf. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007.- 68 b.
20. Isayeva G. P. O‘quvchilarning zamonaviy kasbiy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent: O‘zPFITI, 2007.-19 b.
21. Karimova V, Nishonova Z. Mustaqil ijodiy fikrlash va shaxsning hissiy, irodaviy va intellektual hislatlari orasidagi bog‘lanish // Xalq ta’limi, 2001. № 3-6.-B.-64-69.
22. Komilova G.O. Maktabgacha yoshdagi (5-6 yosh) bolalarga ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanishning pedagogik asoslari: - Pedagogika fanlari nomzodi ilm.darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent. 2002.-21 b.
23. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2001. -184b.
24. Mavlonova R., To‘rayeva R., Xoliqberdiyev K. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002. - 384 b.
25. Matchonov S. Kitob o‘qishni bilasizmi? – Toshkent: O‘qituvchi, 1993.-114b.
26. Matchonov S., Shojalilov A., G‘ulomova X., Sariyev SH., Dolimov Z, O‘qish kitobi 4-sinf. – Toshkent: Yangiyo‘l poligrafservis. 2007.-156-157 b.

27. Mahmudov M.X. Ta’limni didaktik loyihalashning nazariy asoslari : - Ped. fanl.doktori ilm.darajasini olish uchun yozilgan diss. Avtoreferati. – Toshkent. 2004.- 45b.
28. Musurmonova O. O‘quvchilarning ma’naviy madaniyatini shakllantirish. – Toshkent: Fan, 1993.- 112 b.
29. Nishonova S. Sharq uyg‘onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi.- Ped. fan. dokt.ilm.daraj.olish uchun yozilgan diss. – Toshkent: 1998.- 288 b.
30. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: Nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2005.-206 b.
31. Tursunov I., Nishonaliyev U. Pedagogika kursi. – Toshkent., O‘qituvchi, 1997.- 188 b.
32. Teplov B.M., Rubinshteyn S.L.Kovalev va b. Psixologiya. –M., 1961.
33. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Xalq merosi, 1993. -178b.
34. Xolmatova Z.A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida dialogga asoslangan munosabatlar madaniyatini shakllantirishning didaktik shart-sharoitlari: Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. Avtoref. – Namangan, 2019. – 49 b.
35. Xoliqov E., Xudoyqulov X. J. va boshq. Ta’lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: T.D.A.I, 1999.- 98 b.
36. Sharipov A. Abu Rayxon Beruniy. – Toshkent: Fan, 1999. -114 b.

37. Egamberdieva F. Adabiy ta’lim samaradorligini oshirishda yangi pedagogik texnologiyalar: Ped fan. nom. Diss avtoref. – Toshkent, 2005.- 20 b.
38. Yusupov E. Inson kamolotining mahnaviy asoslari. – Toshkent: Universitet, 1998. - 184 b.
39. G‘oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994. -292 b.
40. Yakimanskaya I.S. Razvityayee obuchenie. –M.: Pedagogika, 1999.- 57-59 s.
41. Yaminova S. O‘quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ssenariyli o‘qitish usulidan foydalanish: Ped.fan.nom. diss.avtoref. – Toshkent, 1997.-168 b.
42. Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug‘at. – Toshkent: Sharq, 1998.-177b.
43. O‘quvchilarning qiziqish va moyilliklari diagnostikasi. (metodik tavsiyalar).- Toshkent: RO‘MM, 2001.-28 b.
44. Hasanboyeva O., Hasanboyev J. va b.q. Pedagogika. – Toshkent: Fan, 2006.- 282 b.
45. Husanboyeva Q. Adabiy ta’limda mustaqil fikrlashga o‘rgatish asoslari. – Toshkent: O‘zginkomtsentr, 2003.-103 b.
46. Ona tili va o‘qish savodxonligi 2-sinf darslik. (1-qism). Tuzuvchilar: Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov, Shokir Tursun. – v: Respublika ta’lim markazi. 2021.
47. Ona tili va o‘qish savodxonligi 1-sinf darslik. (2-qism). Tuzuvchilar: Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov, Shokir Tursun. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi. 2021.

48. Ona tili va o‘qish savodxonligi (metodik qo‘llanma). (1-qism). Tuzuvchilar: Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov, Shokir Tursun, Nilufar Hakimova, Husnora Baxtiyorova. Respublika ta’lim markazi 2021-yil.
49. Qodirova F., Qodirova M. Bolalar nutqini o‘stirish nazariyasi va metodikasi. –Toshkent, 2006 yil.
50. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva SH., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. Darslik. –, “Noshr” 2009.
51. R. Ikromova, X. G‘ulomova, Sh. Yo‘ldosheva, D. Shodmonqulova. Ona tili 4-sinf uchun darslik “O‘qituvchi“ nashriyotmatbaa ijodiy uyi
52. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Matnazarova K., Shirinov M., Hafizov S. “Umumiy pedagogika”. Darslik. Toshkent, “Innovasiyon rivojlanish nashriyotmatbaa uyi”, 2020, 526 b.
53. Dra’eau ‘atti. S’arking student creativity (‘ractical ways to ‘romote innovative thinking and ‘roblem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
54. M.Usmonboyeva va A. To‘rayev “Kreativ ‘edagogika asoslari”. O‘quv uslubiy majmua Toshkent, 2016, 193 b.
55. Xolyigitova, N. X. (2019). Ijtimoiy psixologiyada o‘quv faoliyati motivatsiyasining rivojlanish omillari (ilmiy adabiyotlar tahlili). Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan), (11 (84)), 20-25.
56. Xolyigitova, N. X. (2019). Motivatsionny sindrom-kak motiviruyuo‘ix komponentov professionalg‘nogo obrazovaniya. In Aktualnoe problema mirovogo nauchnogo prostranstva (“. 52-54).

57. Xolyigitova, N. (2014). Innovatsion texnologiyalar – ta’lim va tarbiya jarayonlarining sifat va samaradorligi omili sifatida. Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan), (1), 22-25.
58. Sodikova, SH. M. (2018). Metodika vvedeniya elementov modulyatsii lazernogo izlucheniya v kurse fiziki. Nauka v sovremennom mire: prioritetq razvitiya nauki v sovremennqx usloviyax, 1(1), 29-32.
59. Sodikova, SH. M. (2018). Osobennosti izlojeniya tema" svoystva lazernogo izlucheniya" V AKADEMICHESKIX LITSEYAX. Strategii i trendq razvitiya nauki v sovremennqx usloviyax, 1(1), 31-33.
60. Tursunaliyevna, A. M., & Karimovna, N. Y. (2022). Maktabgacha tarbiya muassasalarida madaniy-gigiyenik malakalarni tarbiyalash–bolalar organizmning jismoniy rivojlanishida muhim vosita. integration of science, education and ‘ractice. scientific-methodical journal, 3(1), 98-103.
61. Turayeva, D. R. (2018). Stili deyatelnosti pedagogov v sisteme «pedagog-uchastiysya»-kak predmet issledovaniya. In Mejdunarodnaya nauchno-texnicheskaya konferensiya molodax uchenax BGTU im. VG SHuxova (“. 5628-5634).
62. Turayeva D.R. (2014). Faktora, opredelyaychie individualnopsixologicheskie osobennosti lichnosti pedagogov professionalnogo kolledja. Sovremennqe gumanitarnie issledovaniya, (3), 118-121.
63. Narmetova, Y. (2022). Psixosomatik bemorlarda emotsional–nevrotik buzilishlari va ularga psixologik yordam ko‘rsatishning o‘ziga xosligi. Obo‘estvo i innovatsii, 3(2), 64-71.

64. Axmedova, M., & Narmetova, Y. (2022). Neyropedagogika va neyropsixologiya rivojlanib kelayotgan yangi fan sohasi sifatida. Oboestvo i innovatsii, 3(2), 103-109.
65. Akhmedova, M., Narmetova, Y., & Alisherov, B. (2021). Categories of 'erson in conflict and methods of conflict resolution in the occurrence of conflicts between medical personnel.
66. Akhmedova, M. T., Narmetova, Y. K., Nurmatova, I. T., & Malikova, D. U. K. (2022). Communicative Com'etence Formation in Future Teachers Based on an Integrated Approach. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 9(4), 54-60.
67. Melibayeva, R. N., Khashimova, M. K., Narmetova Yu, K., Komilova, M. O., & Bekmirov, T. R. (2020). psychological mechanisms of development students' creative thinking. International journal of scientific & technology research, 9(03).
68. Kholyigitova, N. K. (2019). Pedagogical innovative technologies at the university. in mirovaya nauka XXI veka (12-15).
69. Kholyigitova, N. (2018). Relationshi' between student's professional orientation and dynamic process in group's. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 6(1).
70. Dilova N.G. (2014). Znachenie protsessa pedagogicheskogo sotrudничества v formirovaniı lichnosti uchashixsya nachalnix klassov. Sborniki konferensiy NITS Sotsiosfera. № 26, S. 190-193.

**SHOYUSUPOVA SHAXZODA SHOXRUX QIZI**

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING  
KREATIV QOBILIYATLARINI  
RIVOJLANTIRISHDA TA’LIMIY O‘YINLARDAN  
FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI**

**MONOGRAFIYA**

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: S. Meliqo‘ziyeva

Musaxhih: M. Yunusova

Sahifalovchi: A. Muxammadiyev

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.

Bosishga ruxsat etildi 12.12.2024 y.

Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog‘ozi.

“Times New Roman” garniturasи.

Xisob-nashr tabogi. 5,5.

Adadi 100 dona. Buyurtma № 101.

«Sarbon LLS» MChJ bosmaxonasida chop etildi.

**Nashriyot tel. raqami +998 (97) 017-01-01  
+998 (94) 673-66-56**

## **QAYDLAR UCHUN**

## **QAYDLAR UCHUN**